

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**


**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

«Texnologik mashinalar va jihozlar»  
kafedrasи

Texnologik mashina va jixozlar  
yo`nalishi 2-kurs talabalari uchun

**«Mashinasozlikda payvandlash va ta`mirlashning asosiy uslublari»**  
fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo`yicha

**USLUBIY  
KO`RSATMA**



**Andijon- 2018 yil**

“TASDIQLAYMAN”  
Andijon mashinasozlik instituti  
O’quv – uslubiy  
kengashida ko’rib chiqilgan  
va ma’qullangan

Kengash raisi \_\_\_\_\_ dots.Q.Ermatov

№\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_ 2018 y

“MA’QULLANGAN”  
“Mashinasozlik texnologiyasi” fakulteti  
kengashida muxokama qilingan  
va ma’qullangan

Kengash raisi \_\_\_\_\_ dots. M-A.Eshonov

№\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_ 2018 y

“TAVSIYA ETILGAN”  
“Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasi yig`ilishida  
muxokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ N.Qobulova

№\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_ 2018 y

Tuzuvchilar: Sh.Yo’ldashev – AndMI “Texnologik mashinalar va jihozlar”  
kafedrasi assistenti  
X.Xoshimov – AndMI “Texnologik mashinalar va jihozlar”  
kafedrasi assistenti

Taqrizchilar: N.Hasanov – O`z Auto Austem qo`shma korxonasi payvandlash  
uchastkasi muhandisi  
T.Almatayev - AndMI “Avtomobilsozlik ” kafedrasi  
mudiri, dotsent.

## KIRISH

Mazkur uslubiy qo'llanma 5320300 - Texnologik mashinalar va jihozlar (mashinasozlik va metalga ishlov berish) yo'nalishlaridagi talabalarga «Mashinasozlikda payvandlash va ta'mirlashning asosiy uslublari» fanidan laboratoriya ishlarini bajarishda foydalanish uchun mo'ljallangan. Uslubiy ko'rsatma jami 9 ta laboratoriya ishi, ishning maqsadi, umumiy ma'lumot, ishni bajarish uchun zarur jihozlar, material va asboblar, ishni bajarish tartibi, ish xaqida xulosa qismlaridan iborat.

## MASHINASOZLIKDA PAYVANDLASH VA TA'MIRLASHNING ASOSIY USLUBLARI FANIDAN LABORATORIYA ISHLARINI BAJARISHDA XAVFSIZLIK TEXNIKASI QOIDALARI VA YONG'INGA QARSHI YO'RIQNOMA UMUMIY QOIDALAR

1. Texnika xavfsizligi holati va yong'inga qarshi ko'rildigan choralar laboratoriyaga javobgar shaxs zimmasiga yuklatiladi.
2. Mashg'ulot o'tkazilayotgan vaqtida laboratoriya xavfsizligiga o'qituvchi, ilmiy ish bajarayotganda esa, ishning rahbari javob beradi.
3. Texnika xavfsizligi qoidasi bilan tanishib chiqmagan talabalar mashg'ulotga qo'yilmaydi.
4. Ko'rsatma o'tkazilganligi, ko'rsatma berish jurnaliga ko'rsatma beruvchi va oluvchi shaxslarning imzosi, ko'rsatma berish vaqt qayd etilgan holda belgilanish kerak.
5. Texnika xavfsizligi qoidasini buzgan talabalar qaytadan ko'rsatma olishlari kerak.

## LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH VAQTIDA

### Talabalar rioya qilish kerak bo'lgan qoidalari

1. O'quv mashg'ulotlari boshlanishdan avval laboratoriya ishlari va ularni bajarish qoidalari bilan tanishish kerak.
2. Laboratoriya ishlarini belgilangan joyda va metodik ko'rsatmalar qayd etilgan asbob uskunalaridan foydalilanigan holda bajarish kerak.
3. Asbob-uskunalarining ishdan chiqqanligi haqida o'qituvchiga eslatish kerak.
4. O'quv mashg'uloti o'tkazilayotgan vaqtida ruxsatsiz boshqa joyga chiqib ketmaslik kerak.

## YONG'INGA QARSHI KO'RILADIGAN CHORALAR

### Alangaga befarq munosabatda bo'lish, chekish, yong'in chiqishga va portlashga sabab bo'lish mumkin.

1. Agar yongin chiqish sababi bo'lsa, avvalo, tezda elektr va gaz asboblarini o'chirish kerak. YOnuvchi moddalar solingen idishni chetga olish va so'ngra alangani o'chirishga harakat qilish kerak.
2. YOnayotgan suyuqlikni asbestos materiali bilan berkitish, keyin esa qum sochish usuli bilan o'chirish kerak.
3. Agar elektr simlari yoki elektr asboblardan yong'in chiquvdek bo'lsa, avval, umumiy schyotchikdan tok uzib qo'yilishi va so'ngra yong'indan o'chirishga xarakat qilish kerak (qum, asbestos materiali, karbonat angidritli o't o'chirgich yordamida)
4. Agar ust- boshga o't ketgudek bo'lsa, ochish kerak emas, balki yonayotgan joyni jun material bilan berkitish kerak, bunda o't o'chirgichdan foydalanish mumkin emas.

## QUYIDAGILAR TAQIQLANADI

1. Moddadalrni ta'mini til bilan tatib ko'rish qat'yan ma'n etiladi, xidni bilish uchun esa chuqur nafas olmasdan, xidni qo'l orqali sal yo'naltirilib xidlash kerak.
2. Tajribaga iflos idishlarni ishlatish mumkin emas.
3. Moddalarni yozuvsiz (etiketkasiz) idishlarda saqlash mumkin emas.
4. Ish stolida kerak bo'limgan narsalarni (ayniqsa oson alanganuvchi moddalar, kislotalar va ishqorlarni) saqlash ma'n etiladi.
5. Laboratoriya mashg'uloti tugagandan so'ng gaz garelkalari, elektr asboblari, suv jumraklarini ishlayotgan holda tashlab ketish mutlaqo mumkin emas.

**I – Laboratoriya ishi**  
**TRANSFORMATORNI ISHLASH PRINTSIPI**  
**VA KONSTRUKTSIYASINI O’RGANISH**

**Ish hajmi:** laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtida ishlashga mo‘ljallangan.

**Ishdan maqsad:**

1. TD-300 turidagi transformatorning konstruktsiyasi, elektr sxemasini o’rganish va tanishish.
2. TD-300 transformatorining ishslash printsipini o’zlashtirish.

**Qisqacha nazariy ma’lumot.** TD-300 transformatori – o’zgaruvchan tokning sanoat tarmoqlari kuchlanishi 220-380 V past kuchlanishga ya’ni ГОСТ bo'yicha payvandlash jihozlari kuchlanishiga va lozim bo’lgan payvandlash tokini ta’minlovchi elektr magnit apparatdir. Payvandlash transformatorining turg’un payvandlash jarayoni uchun lozim bo’lgan tez pasayib borishi uchun transformatorning maxsus konstruktsiyasi ya’ni sochilma magnit oqimlari kattalashtirilgan transformatori ishlab chiqarilgan. Payvanlash tranformatorining chulg’amlari suriladigan konstruktsiyasi eng ko’p tarqalgan. Bunday transformator E320, E330 rusumli elektrotexnik po’lat plastinkalardan yig’ilgan berk magnit o’tkazgichida yig’iladi. Ketma-ket ulangan g’altaklardan tuzilgan birlamchi chulg’ami tarmoq kuchlanishiga ulanadi, chulg’am magnit o’tkazgichda qo’zg’almas qilib maxkamlanadi. Ikkilamchi chulg’am ham ikkita g’altakdan tayyorlangan bo’lib, dasta aylantirilganda magnit o’tkazgichning o’zagi bo’ylab erkin surilishi mumkin.


TD-300 payvandlash tranformatori bir fazali sterjen turkumlidir. Tranformatorning ikki chulg’ami ikki katushkadan iborat va magnit o’zakda juftligida joylashgan. Birlamchi chulg’am katushkalar pastki qismida qo’zg’almas joylashilgan. Chulg’amlar alyuminiy simlaridan tayyorlangan.

Transformatorning ishlashi magnit o’tqazgich orqali birlamchi va ikkilamchi chulg’amlarning elektromagnit oqimlarining o’zaro ta’sirlariga asoslangan. Energiya uzatishda ikkita o’zgaruvchan magnit oqimlari qatnashadi: faqat magnitdan o’tadigan asosiy oqim  $F_s$ . Salt yurish rejimida birlamchi chulg’amning g’altagi kuchlanishi  $U_1=220-380$  V li ta’minlovchi elektr tarmog’iga ulanadi. Bunda berk kontur hosil bo’ladi va undan salt yurish toki  $I_{s.y}$  o’tadi. Bu rejimda ikkilamchi chulg’am ulangan payvandlash zanjiri (ikkilamchi kontur) ochiq. Transformatorning ikkilamchi kuchlanishi salt yurish kuchlanishi  $U_2=U_{s.y}$  ga teng. Uning qiymatini yogni ishonchli hosil bo’lishi va havfsizlik texnikasi talablar shartlari asosida transformatorni hisoblashda tanlaydilar  $U_{s.y} \leq 65$  V.

Yuklama rejimida, payvandlovchi yoy yonganda ikkilamchi kontur xam berk. Undan yoy toki (payvandlash toki) o’tadi. Bu tok va g’altaklar birlamchi va ikkilamchi chulg’amlar orasidagi masofani o’zgartirib rostlanadi. Agar g’altaklar orasidagi masofa  $E_{max}$  maksimal bo’lsa,  $F_s$  sochilma magnit oqimi eng katta bo’ladi, asosiy magnit oqimi  $F_t$  va demak, payvandlash toki esa kattalashadi.

Suriladigan chulg’ami transformatorlar uchun payvandlash tokining rostlash karraligi  $K_r \leq 5$ . Payvandchi payvandlash uchun lozim bo’lgan tok qiymatini payvandlash transformatorining dastasini aylantirib va tok qiymatining ko’rsatkichiga qarab o’rnatadi, ko’rsatkich transformatorning jildida o’rnataladi.

Qisqa tutashish rejimida payvandlash zanjiri elektrod bilan buyum orqali berk bo’ladi. Qisqa tutashish toki payvandlash toki (yoy toki)dan, odatda 1,1-1,2 marta katta bo’ladi. Bu shart yoy bilan dastaki payvandlashda dastlabki paytda yoy oson yonishi uchun turli konstruksiyadagi payvandlash transformatorlari uchun albatta bajariladi.



1.1-rasm. TD-300 transformatorini prinsipial elektr sxemasi.

Payvandlash ishlari bajarilayotganda manba yoki  $t_i$  vaqt ichida ishchi holatda, yoki  $t_s$  vaqt ichida salt yurish rejimida bo'ladi. Ikkala holat galma-galdan takrorlanadi. Shuning uchun ta'minlash manbai qaytalama-qisqa vaqt rejimda ishlaydi deyish qabul qilingan, bu rejim ulanishining davom etishi (UDE) bilan tavsiflanadi:


$$UDE = (t_i / (t_i + t_s)) \cdot 100\%$$

ГОСТ 18311-72 ga binoan manbalarning ishlash sharoitiga qarab UDE = 5%, 10%, 15%, 30%, 65%, 100% qiymatlarini ko'zda tutadi, buni hisobga olgan holda xar bir tok manbaining turiga qarab nominal tok  $I_{nom}$  hisoblanadi, shunda bu tokda manba qizib ketmaydi:

$$I_{nom} = I_{uz} \cdot 100/UDE$$

bu erda  $I_{uz}$  – UDE 100% bo'lganda uzoq muddat yo'l qo'yiladigan tok. Taminlash manbalari turli quvvatlarda 40 dan 5000 A nominal toklarga mo'ljallab ishlab chiqariladi, aniq qiymatlari shu chegaralarda ГОСТ томонидан belgilangan.

UDE, %



1.2-rasm. Transformatorni payvand toki kattaligini UDE ruxsat etilgan qiymatlari bog'liqlik grafigi:

I – katta toklar bosqichi; II – kichik toklar bosqichi

1.1-jadval

O'lchov asboblarining ma'lumotlari

	Asbob nomi	Zavod raqami	Asbob sistemasi	Aniqlik sinfi	O'lchov chegaralari	Bo'lish bahosi	Izoh

1.2-jadval

O'lchovlar raqami	Rostlash bosqichi	Katushkala r orasidagi masofa	Ballast reostati pichoqlari joylashish holati	O'lchang'an	
				$U_2, B$	$I_2, A$
1			x.x.		
2			1-2		
3			1-2-3		
4			1-3-4		
$I_{(II)}$		$v = 0$			

5	$v = v_{max}$	2-4-5		
6		2-3-4-5		
7		K. 3		
8		x.x.		
9		1-2		
10		1-2-3		
11		1-3-4		
12		2-4-5		
13		2-3-4-5		
14		K. 3		

### TD-300 transformatorini texnik ko'rsatkichlari

Nominal payvand toki, A	300
Nominal ish rejimi (UDE), %.	60
Nominal ikkilamchi kuchlanish yuklanishi, V	30
Tok rostlash chegaralari, A:	
- katta toklar bosqichi	160-385
- kichik toklar bosqichi	60-160
Salt yurishning ikkilamchi kuchlanishi, V:	
- katta toklar bosqichi	61
- kichik toklar bosqichi	79
Sarflanayotgan quvvat, kVa	19,4
Foydali ish koeffitsienti, %	85
Quvvat koeffitsienti	0,53
Gabarit o'lchamlar, mm	640×490×715
Vazni, N	1340
Qo'llaniladigan jihozlar va materiallar	

#### 1. TD-300 transformatori

##### **Laboratoriyanı bajarish tartibi.**

1. Transformator konstruktsiyasi bilan tanishish. Transformatorning harakatlanuvchi chulg'amini aniqlash. Transformator o'zagidagi chulg'amlar bilan va ular orasidagi  $v$  masofani aniqlab eskizini chizib olish.
2. O'r ganilayotgan transformatorni texnik ko'rsatkichlarini yozib olish.
3. Transformatorni elektr sxemasini chizib olish va katta va kichik toklarni bosqichi qurilmasi kontakt almashlab ulagichni ko'rsatib o'tish.
4. TD-300 transformatorini ishlash printsipini yozib olish.

##### **Hisobot shakli**

Hisobotda ishning maqsadi va umumiyl ishlarning holati haqida qisqacha ma'lumot berilishi kerak; payvandlash transformatorini ishlash printsipi; transformatorni texnik ko'rsatkichlari; xulosalar va olingan natijalar bo'yicha tushuntirish ma'lumotlari keltirilgan bo'lishi kerak.

##### **Nazorat savollari**

1. TD-300 transformatori qanday tuzilishga ega?
2. Transformator tashqi tavsifi qanday hosil bo'ladi?
3. Payvandlash toki qanday usulda rostlanadi?
4. Yoy bilan dastaki payvandlash uchun ta'minlash manbaining tashqi voltamper tavsifi qanday bo'lishi kerak?

**2 – Laboratoriya ishi**  
**YOYLI DASTAKLI PAYVANDLASH REJIMINI PAYVAND CHOKNING**  
**KONSTRUKTIV O'LCHAMLARIGA TA'SIRINI O'RGANISH**

**Ish hajmi:** laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtida ishlashga mo'ljallangan.

**Ishdan maqsad:**

1. Yoyli dastakli payvandlashning rejimini xisoblab aniqlash tajribasiga ega bo'lish.
2. Asosiy metalning erish chuqurligi, uning chok o'lchamiga payvandlash rejimi ta'sir etishi bilan tanishish.

**Qisqacha nazariy ma'lumot.** Payvandlash rejimi deb payvandlash jarayonining asosiy xarakteristikalarining jamlanmasiga aytildi. Ular o'z navbatida sifatli payvand chokiga erishishni ta'minlaydi.

Yoyli dastakli payvandlashning asosiy rejim parametrlariga quyidagilar kiradi: elektrod diametri; payvandlash toki kuchi; payvandlash tezligi, (payvandlash tezligi hosil qilinayotgan chok o'lchamiga nisbatan rostlanadi); ko'p qatlamlili payvandlashda – qatlamlar soni. Qoplalami elektrodlar bilan payvandlashda yoy kuchlanishi kichik chegaralarda o'zgaradi (18...22 V) va shuning uchun payvandlash rejiminining elementi sifatida qabul qilinmaydi. Elektrod turi va markasi, tok turi va qutbi konkret payvandlanayotgan materialning texnologik xususiyatiga nisbatan tanlanadi.

Payvandlash rejimini xisoblashda ilk qiymatlar chokning geometrik o'lchami xisoblanadi, bu GOST bo'yicha yoki konstruktorlik xisoblashlar bilan aniqlanadi.

Xisobni elektrod diametrini aniqlash bilan boshlaymiz. Uni aniqlash uchun esa bizga payvandlanayotgan material qalinligini bilish lozim bo'ladi. Masalan: ustma-ust, burchak va tavrli birikmalarda chok katetini bilishimiz kerak. Elektrod diametrini tanlash bo'yicha amaliy tavsiyalar quyidagi 2.1 va 2.2 jadvallarda keltirilgan.

**2.1-jadval**

Uchma-uch payvandlashda detal qalinligi s, mm	1,5... 2	3	4...8	9...12	13...15	16...20	20
Elektrod diametri $d_e$ , mm	1,6... 2	3	4	4...5	5	5...6	6...1 0

**2.2-Jadval**

Ustma-ust, burchakli va tavrli birikmalarda chok kateti, mm	3	4...5	6...9
Elektrod diametri $d_e$ , mm	3	4	5

Ko'p qatlamlili birikmalarni payvandlashda to'liq erishini ta'minlash uchun birinchi qatlamni yotqizishda elektrod diametrini 4 mm qilib tanlab olamiz.

Payvandlash rejiminining asosiy parametri bo'lib payvandlash toki xisoblanadi. Tok qiymatini o'zgartirish bilan erish chuqurligi va jarayonning ishlab chiqarish unumdonligiga ta'sir etish mumkin. Ammo tok kuchini oshirish oqibatida elektrod erishi notejis kechishi va qoplama qizib ketishi mumkin. Bu jarayon Djoul-Lens qonuniga asosan vujudga keladi. Chokning normal sifatiga erishish uchun elektrod erish tezligi boshiga nisbatan oxirida ko'pi bilan 30 %, ga farq qilishi kerak, qoplamani qizib ketish darajasi esa ximoya xususiyatlarini yuqotish xaroratidan past bo'lishi kerak.

Ko'p yillik amaliyotlar natijasida empirik formulalar ishlab chiqilgan, bu formulalar bilan elektrod diametri orqali payvandlash toki kuchi chegaralarini aniqlash mumkin. Eng aniq natijalarni quyidagi formula orqali olish mumkin.

$$I_{pay} = \frac{\pi d_e^2}{4} j \quad (2.1)$$

Bu erda  $I_{pay}$  – payvandlash toki kuchi, A;  $d_e$  - elektrod diametri (uzagi), mm;  $j$  – ruxsat etilgan tok zichligi, A/mm<sup>2</sup>.

**2.3-jadval**

Yoyli dastakli payvandlashda elektrod tok zichligining yo'l qo'yilgan qiymatlari.

Qoplama turi	d <sub>e</sub> , mm da ruxsat etilgan tok zichligi j, A/mm <sup>2</sup>			
	3	4	5	6
Kislotali, rutilli	14...20	11,5...16	10...13,5	9,5...12,5
Asosli	13...18,5	10...14,5	9...12,5	8,5...12,0

Keltirilgan xisoblashlarga ko'ra payvandlash toki qiymati quyida keltirilgan emperik formulalarning birini qo'llab aniqlash mumkin:

$$I_{pay} = k \cdot d_e, \text{ A} \quad (2.2)$$

k qiymatini 2.4-jadvalda keltirilgan elektrodlar diametriga nisbatan tanlanadi.

2.4-jadval

Elektrod diametri d <sub>e</sub> , mm	2	3	4	5	6
k	25...30	30...45	35...50	40...55	45...60

$$I_{pay} = k_1 \cdot d_e^{1.5}, \text{ A} \quad (2.3)$$

Bu erda k<sub>1</sub>, 20...25 chegalarda tanlanadi

$$I_{pay} = d_e (k_2 + \alpha \cdot d_e), \text{ A} \quad (2.4)$$

k<sub>2</sub> = 20; α=6.

Payvandlash tezligi qoplanayotgan chok o'lchamiga nisbatan yoki ko'p qatlamlili payvandlashda esa qatlamning ko'ndalang kesim yuzasi bo'yicha aniqlanadi

$$v_{pay} = \frac{\alpha_{e,q} \cdot I_{pay}}{100 \cdot \rho \cdot F_{e,q}}, \text{ m/soat} \quad (2.5)$$

Bu erda α<sub>e,q</sub> – eritib qoplash koeffisienti, g/A·soat; F<sub>e,q</sub> – valikning ko'ndalang kesim yuzasi, sm<sup>2</sup>; ρ – eritib qoplangan metal zichligi.

Qatlamlarni yotqizishda ularning sonini aniqlashda shuni inobatga olish kerakki, bitta qatlam yotqizgandagi metalning maksimal ko'ndalang kesim yuzasi 30...40 mm<sup>2</sup> dan oshib ketmasligi kerak. Burchak va tavr birikmalar uchun qoida bo'yicha bir qatlam yotqizishda chok kateti 8-9 mm dan oshiq bo'lmasligi kerak. Uchma-uch choklarni payvandlashda ko'p qatlamlab payvandlashning birinchi qatlamining ko'ndalang kesim yuzasi F<sub>1</sub> quyidagi bog'liqliqqa asosan tanlanadi

$$F_1 = (6...8)d_{el} \quad (2.6)$$

Bu erda d<sub>el</sub> – elektrod diametri, mm. Keyingi choklarning kesim yuzasi F<sub>n</sub> quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$F_n = (8...12)d_{el}, \text{ mm}^2 \quad (2.7)$$

Umumiy eritib qoplangan metal ko'ndalang kesim yuzasi F<sub>n</sub> ni bilgan holda, qatlamlarni yotqizish sonini aniqlaymiz

$$n = \frac{F_n - F_1}{F_n} + 1 \quad (2.8)$$

Payvandlash deformatsiyasining qiymatini, issiqliq tarqalishi va boshqa shu kabi xisoblashlarni aniqlash uchun pog'onli energiya tushunchasi bo'yicha bajariladi. Pogonli energiya (q<sub>p</sub>) deb yoy quvvatini uning xaarakatlanish tezligiga nisbatiga aytildi. Pogonli energiya bir vaqtning o'zida bir qatlam chokning uzinligi bo'ylab kiritilgan issiqlik miqdorini aniqlaydi

$$q_p = \frac{0,24 \cdot I_{pay} \cdot U_{yoy}}{v_{pay}} \eta \quad (2.9)$$

Bu erda U<sub>d</sub> – yoydagagi kuchlanish, η – yoyning effektiv f.i.k.

Kam uglerodli va kam legirlangan po'latlarni yoyli dastakli payvandlashda erish chuqurligi h quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin.

$$h = (0,5...0,7)0,0112\sqrt{q_n}, \text{ mm} \quad (2.10)$$

Kristalizatsiyalashgan chok metali payvandlash vannasida suyuq xolatda bo'lgan asosiy metal va qo'shimcha metaldan iboratdir. Ularni chokdagagi miqdori keyinchalik chokning kimyoviy tarkibini va mustaxkamlik hamda qancha xizmat ko'rsatish xususiyatlarini aniqlaydi. Chok shakllanishiga assosiy metal γ<sub>a</sub> ni miqdori quyidagi nisbat bo'yicha aniqlanadi

$$\gamma_a = F_a / F_{choq} \quad (2.11)$$

Vaxolanki chok shakllanishiga eritib qoplangan metal  $\gamma_n$  ning miqdori quyidagi nisbat bo'yicha aniqlanadi

$$\gamma_{e.q} = F_{e.q.} / F_{ch} \quad (2.12)$$

Bu erda  $F_a$ ,  $F_{e.q}$ , va  $F_{ch}$  – erigan asosiy metalning qirralari, eritib qoplangan metal va choklarning ko'ndalang kesim yuzalari. Bunda

$$\gamma_a + \gamma_{e.q} = 1 \text{ bo'lishi kerak} \quad (2.13)$$

Payvandlash rejimi asosiy metalning erishiga, chokning shakli va o'lchamiga sezilarli darajada ta'sir etadi.

Payvandlash toki oshishi bilan erish chuqurligi oshadi. Bunday ta'sirning sababi payvandlash vannasining yuzasiga yoy yordamida bosimning o'zgarishidir. Tokning turi va qutbi erish chuqurligiga ta'sir etadi. O'zgarmas tokda teskari qutbda payvandlashda erish chuqurligi, o'zgarmas tokda to'g'ri qutbda payvandlashga nisbatan taxminan 40...50 % ga ko'p bo'ladi. O'zgaruvchan tokda payvandlashda erish chuqurligi, o'zgarmas tokda teskari qutbda payvandlashga nisbatan 15...20 % ga past bo'ladi. Buning sababi katod va anoddagi issiqlik energiyasini o'zgrishidir. Qoplamlali elektrodlar bilan payvandlashda tokning turi va qutbi chok eniga ta'sir etmaydi desa ham bo'laveradi.

Payvandlash tezligi erish chuqurligiga ta'siri murakkab masaladir. Chunki past tezlikda (1,0...1,5 m/soat) yoy asosida suyuq metal qatlami hosil bo'ladi, bu esa o'z navbatida asosiy metal erishiga to'sqinlik qiladi, va oqibatda erish chuqurligi kam. Agar payvandlash tezligini qisman oshirsak erish chuqurligi oshadi. Agarda payvandlash tezligini oshiraversak pog'onli energiyaning kamayib ketishi oqibatida erish chuqurligi ham kam bo'ladi.

#### Qo'llaniladigan jihozlar va materiallar

1. Yoyli dastakli payvandlash uchun payvandlash posti, o'lchov asboblari bilan.
2. Namunani sindirish uchun dastakli press.
3. Sekundomer.
4. Temir lineyka.
5. Shtangentsirkul.
6. Bir rusumli 3, 4 va 5 mm diametrli qoplamlali elektrodlar.
7. Eritib qoplash uchun mo'ljallangan kam uglerodli plastinkalar.

#### Laboratoriyanı bajarish tartibi.

##### *Payvandlash rejimini hisoblash.*

1. O'qituvchi tomonidan berilgan shartlarga ko'ra payvandlash rejimini va erish chuqurligini yuqorida keltirilgan formulalarni qo'llab hisoblash.
2. Ikkita plastinani uchma-uch yig'ib chetlaridan prixvatka qilish.
3. Hisoblab chiqilgan rejim bo'yicha ikkita yig'ilgan plastinalarni ko'ndalangi bo'yicha valikni eritish, payvandlash tezligini inobatga olish.
4. Dastakli pressda plastinalarni sindirib erish chuqurligini o'lhash. Hisoblab chiqilgan chuqurlik bilan amaldagi chuqurlikni farqini taqqoslash. Hisob va eksperimental natijalarni jadval – 2.5 ga kiriting.

2.5-jadval

	d <sub>el</sub> , mm	A <sub>e.q.</sub> , g/A·soat	I <sub>pay</sub> , A	U <sub>yoy</sub> , V	V <sub>pay</sub> , m/soat	h <sub>1</sub> , mm	F <sub>n1</sub> , mm	F <sub>pr1</sub> , mm	F <sub>ch1</sub> , mm
Hisoblangan									
Eksperimental									

5. Chokning ko'ndalang kesimning asosiy o'lchamlarini o'lchang. Chok eskizini chizib unga o'lchangan qiymatlarni qo'yib chiqing. Erigan va eritib qoplangan metalning ko'ndalang kesim maydoni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin.

$$F_n = 0,75 \cdot s \cdot b \quad (2.13)$$

$$F_{pr} = 0,75 \cdot h \cdot b \quad (2.14)$$

Bu erda s – chok valikining zo'riqish balandligi, mm; b – chok eni, mm.

Elektrod diametrini chok o'lchamiga va asosiy metalning erish darajasiga ta'siri.

1. Ikkita plastinani yig'ib yon tomonlari bilan tutashtirish.

2. 4 mm diametrli elektrod uchun yordamchi plastinada (140...150 A) tanlash.

3. Bir rusumli uchta turli xil diametrali (3, 4 va 5 mm) bo’lgan elektrod bilan tanlangan rejim asosida tutashtirilgan plastinalarni ko’ndlangi bo’ylab uchta valikni payvandlash-eritib qoplash. Payvandlash tezligini va yoydagи kuchlanishni bir xil qilib ushlash. Xaar bir payvandlab yotqizishni avvalgisi sovugandan keyin bajarish kerak.

4. Dastakli press yordamida namunalarni sindirib payvandlab yotqizilgan valiklarni asosiy ko’ndalang kesim o’lchamlarini o’lhash. Tajriba ma’lumotlarini jadval – 2.6. ga yozing.

2.6 - jadval

Nº	d <sub>el</sub> , mm	I <sub>pay</sub> , A	U <sub>yoy</sub> , V	V <sub>pay</sub> , m/coat	q <sub>p</sub> , Dj/m	b, mm	s, mm	h, mm	F <sub>n</sub> , mm <sup>2</sup>	F <sub>pr</sub> , mm <sup>2</sup>	γ <sub>a</sub>

Payvandlash tezligini chok o’lchamlariga va asosiy metalning erishiga ta’siri.

1. 4 mm diametrli elektrod uchun tajribani takrorlash. Eksperimental ko’rsatkichlarni va hisoblab chiqilgan ko’rsatqichlarni jadval -1.6 ga kriting.

### Hisobot shakli

Hisobotda ishning maqsadi va umumiy ishlarning holati haqida qisqacha ma’lumot berilishi kerak; payvandlash rejimi xisobi; eksperimental va xisoblangan ko’rsatqichlar bilan yoritilgan barcha jadvallar; chok va asosiy metalning elektrod diametriga nisbatan grafik masshtablari ularning geometrik o’lchamlari aniq chizib ko’rsatilishi kerak, tok kuchi va pavandlash tezligi, xulosalar va olingan natijalar bo’yicha tushuntirish ma’lumotlari keltirilgan bo’lishi kerak.

### Nazorat savollari

1. Payvandlash rejimi nima va yoyli dastakli payvandlash rejimiga qaysi parametrlar kiradi?
2. Yoyli dastakli payvandlashning rejim parametrlarini xisoblash ketma ketligini aytib bering?
3. Payvandlashning pog’onli energiyasi nimani xarakterlaydi?
4. Pog’onli energiya va chok valikining kesimi orasida qanday bog’liqlik bor?
5. Chok metalida asosiy metal ulushi qanday aniqlanadi?
6. Rejim parametrlari, yoyli dastakli payvandlashda chok metaliga va asosiy metal ulushiga qanday ta’sir etadi?

### 3 - laboratoriya ishi.

#### QOPLAMALI ELEKTRODLARNI TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI ANIQLASH

**Ish hajmi:** laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtida ishlashga mo’ljallangan.

#### Ishdan maqsad:

1. Qoplalmali elektrodlarni erishining asosiy xarakteristikasini aniqlash usulini o’rganish.
2. Payvandlash toki qutbi, turi va kuchlarini ta’sirini o’rganish, erish koeffitsientiga elektrodning diametri va rusumini ta’siri, eritib qoplash koeffitsienti va yoyli dastaki payvandlashning ishlab chiqarish unumdorligini o’rganish.

**Qisqacha nazariy ma’lumot.** Eritib qoplash va yoyli payvandlash jarayonlarining donali elektrodlar bilan ishlab chiqarish unumdorligini aniqlash elektrod o’zagining erish tezligi bilan aniqlanadi. Qoplalmali elektrodlar uchun qoplamasiz elektrodlar uchun bu ko’rsatgich kam bo’ladi, chunki isiqlikning bir bo’lagi qoplamanini erishi bug’lanishiga sarf bo’ladi. Elektrod o’zagiga qoplangan qoplamaning miqdori qoplamaning og’irlilik koeffitsienti k bilan tavsiflanadi, bu o’z navbatida elektroddagi qoplamaning og’irligiga G<sub>n</sub> nisbatan olinadi, bu esa metal og’irligining uzunligi bo’yicha bo’lgan nisbatini shu uzunlik yuzasiga qoplamaning og’rilik miqdori G<sub>o</sub> nisbatida hisoblanadi:

$$k = G_n/G_o \quad (3.1)$$

Agar 1 sm elektrod simining og'irligi m (g/sm) aniq bo'lsa u hoda, to

$$k = (G_{el} - ml_{el}) / m \cdot l_n \quad (3.2)$$

bu erda  $G_{el}$  va  $l_{el}$  - bitta elektrodnning og'irligi (g) va uning uzunligi (sm);  $l_n$  – qoplanadigan elektrodnning qismi, sm.

Elektrodnning texnologik xususiyatlari pasayib ketishini oldini olish uchun qoplanish og'irligi koeffitsiyenti unchalik katta bo'lmasligi kerak. Lekin, qoplama miqdori payvandlash vannasi va elektrod metalining erigan tomchisini metallurgik ishlov berishini ta'minlash uchun yetarli bo'lishi kerak. Qoplamlali elektrodlarda  $k=0,3...0,5$  bo'ladi.

Elektrod o'zagining erish tezligi nafaqat qoplama og'irligi koeffitsiyentiga bog'liq balki, uning tarkibi va elektrod o'zagining diametriga hamda tok kuchi va turiga va shu kabi faktorlarga bog'liqdir. Elektrodnning erish tezligiga eng katta ta'sir etadigan xususiyat bu payvandlashtoki kuchi. Tok kuchini oshirish yoyning effektiv isishi oshib boradi va oqibatda elektrodnning erish intensivligi oshadi.

Turli rusumli elektrodlarni erish tezligini solishtirish uchun erish koeffitsiyenti degan atama kiritilgan. Erish koeffitsiyenti  $\alpha_e$  qancha elektrod metali  $G_e$  bir grammida payvandlash toki kuchi ta'sirida 1 A, ma'lum vaqtida ( $t_{pay}$ ) erishini ko'rsatadi.

$$\alpha_e = \frac{G_e}{I_{pay} \cdot t_{pay}}, \text{ g / A} \cdot \text{soat} \quad (3.3)$$

Ayrim elektrodlar qoplamariga erigan metal hajmini oshirish uchun temir kukuni qo'shiladi (60% gacha).

Bu xolda erigan metal miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$G_e = G_{e.m.} + G_{e.q.} \quad (3.4)$$

Bu erda  $G_{e.m.}$  - elektrod metalining erigan qismining og'irligi grammida;

$G_{e.q.}$  - elektrod qoplamarida mavjud erigan metal og'irligi.

Kam uglerodli po'latlarni payvandlash uchun mo'ljallangan va eng keng tarqalgan elektrodlarning erish koeffitsienti 7...13 g/A·soat ni tashkil etadi. Eritilayotgan valik shakllanishi elektrod metalini erishi hisobiga bajariladi. Lekin eritilayotgan elektrod metalining hammasi ham valik shakllanishida ishtirok etmaydi, chunki erish paytida erigan metal sachrashga, bug'lanishga va oksidlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun eritilib yotqizilgan metal og'irligi elektrod metalining og'irligidan kam bo'ladi. Ayrim hollarda, ya'ni elektrod qoplamasining tarkibiga ko'p miqdorda ferro qotishmalar va temir kukunlari qo'shilganda og'irligi teng bo'lishi mumkin. Eritib yotqizilgan metal miqdori eritib qoplangan metal koyfisientiga bog'liq. U o'z navbatida erigan metal miqdorini  $G_m$  (gramm), 1A kuchi payvandlash toki ta'sirida ( $I_{pay}$ ), 1 soat vaqt qiymatida  $t_{sv}$  aniqlanadi:

$$\alpha_m = \frac{G_{e.q}}{I_{pay} \cdot t_{pay}} \text{ g/A} \cdot \text{soat} \quad (3.5)$$

Oddiy qoplamlali elektrodlar uchun eritib yotqizilgan metal koeffitsiyenti 6...12,5 g/A soat chegarasida yotadi.

Erigan metal sachrashga, bug'lanishga va ularga sarf bo'ladigan elektrod metalining miqdori, sarflanish koeffitsiyenti  $\psi$  orqali aniqlanadi;

$$\psi = (G_e - G_{e.q}) \cdot G_e \cdot 100\% \quad (3.6)$$

yoki

$$\psi = (\alpha_e - \alpha_{e.q}) \cdot \alpha_e \cdot 100\% \quad (3.7)$$

Elektrod markasi (rusumi) va payvandlash shartiga asosan sarflanish koeffitsiyenti 5...25 % chegaralarda bo'ladi. Qoplamlali elektrodlarning ortiqcha sarf bo'lish koeffitsiyenti qoplamasiz elektrodlarga nisbatan ancha past bo'ladi. Chunki elektrodnning qoplamasini erigan metalning sachrashiga

qisman to'sqinlik qiladi. Elektrod yonish jarayonida hosil bo'ladigan qo'shimcha gazlar chok ichiga metal bug'larini va mayda tomchilarni tortib ketadi.

Belgilab qo'yilganki  $\alpha_e$ ,  $\alpha_{e,q}$ , va  $\psi$  koeffitsiyenti qoplama tarkibiga, uning miqdoriga va payvandlash shartlariga bog'liq. Payvandlash toki turi ushbu  $\alpha_r$ ,  $\alpha_n$ , va  $\psi$  qiymatlarga sezilarli darajada ta'sir etmaydi, lekin payvandlash tokini oshirish bilan elektrod erishi ya'ni yonishi va erigan elektrod metalining chokka yotqizilishi oshib boradi.

Ortiqcha sarf bo'lismoy koyfitsienti yoy uzunligini oshirganda (yoy kuchlanishini oshirganda) ham oshib borishi mumkin.

Yuqorida ko'rib chiqilgan qiymatlar elektrodlarning texnologik xarakteristikasi hisoblanadi va bu ma'lumotlar elektrodnning pasport ma'lumotlarida yoki kataloglarda ko'rsatiladi. Bu ma'lumotlar payvandlash ishlarini me'yorlash uchun, elektrodlar sarfini aniqlash uchun va yoyli dastakli payvandlash rejim parametrlarini hisoblashda qo'llaniladi.

Masalan, agar erigan metal yuzasi ( $F_e$ ) va chok uzunligi ( $l_{ch}$ ) aniq bo'lsa, u holda eritib yotqizilgan (chok metali) quyidagi teng bo'ladi:

$$G_{e,q} = F_{e,q} \cdot l_{ch} \cdot \rho, \text{ g} \quad (3.8)$$

Bu erda  $\rho$  - metal zichligi, ko'pgina po'latlar uchun -  $\rho = 7,8 \text{ g/sm}^3$  teng. Tanlangan elektrod rusumiga nisbatan olingan pasport ma'lumotlariga asosan  $\alpha_r$ ,  $\alpha_{e,q}$ , va  $\psi$  va k lar aniqlanadi. Payvandlashning asosiy vaqt (T<sub>a</sub>) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$T_0 = G_{e,q} / \alpha_{e,q} \cdot I_{pay}, \text{ soat} \quad (1.9)$$

Ushbu chokni payvandlash uchun kerak bo'ladigan elektrod og'irligini (massasi) esa quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$G_e = G_{e,q} \cdot k(1 + \psi) \cdot k, \text{ kg} \quad (3.10)$$

Bu erda  $k$  - elektrodnning elektrod tutkichda qolib ketgan bir qismi ortiqcha sarfi koeffisienti.

Pasport ma'lumotlariga ko'ra chok metali koeffisientini va yoyli dastakli payvandlash jarayonning nazariy unumdorligini elektrodnning konkret rusumiga nisbatan formula bo'yicha hisoblab chiqish mumkin.

### Qo'llaniladigan jixozlar va materiallar

1. Yoyli dastakli payvandlash uchun o'zgarmas va o'zgaruvchan toklarda ishlaydigan payvandlash posti.
2. O'zgarmas va o'zgaruvchan toklar uchun ampermetrlar 300 A gacha.
3. O'zgarmas va o'zgaruvchan toklar uchun voltmetrlar 60 V gacha.
4. Texnik tarozi.
5. Sekundomer.
6. Metaldan yasalgan lineyka.
7. Shtangentsirkul.
8. Chilangarlik asboblari: bolg'a, zubilo, egov, metal chyotka.
9. Qoplamlami elektrodlar.
10. Eritib qoplash uchun kam uglerodli po'latdan tayyorlangan plastinalar.

### Laboratoriyanı bajarish tartibi.

Qoplama massasini koeffisientini aniqlash.

1. O'qituvchi tomonidan berilgan ikkita bir hil diametrli ikki hil rusumli elektrodn shtangentsirkul va lineyka yordamida uning uzunligini ( $l_{el}$ ), diametrini ( $d_{el}$ ) va qoplangan qismining uzunligini ( $l_{e,q}$ ) o'lchang.

2. Xar bir elektrodn tarozida 0,5 grammgacha bo'lgan anqlikda torting.

3. Formula bo'yicha 1sm elektrod o'zagini og'irligini hisoblab chiqing.

$$m = \frac{\pi d_{el}^2}{4} \cdot \rho, \text{ g/sm} \quad (3.12)$$

Bu erda  $\rho$  - elektrod o'zagining zichligi (kam uglerodli po'latlar uchun -  $7,8 \text{ g/sm}^3$ .)

4. Elektrodlarning xar bir rusumi uchun elektrod qoplamasining og'irlilik koeffitsientini (3.2) formula yordamida hisoblash. O'lchov ma'lumotlarini 3.1. – jadvalga kiriting.

3.1.-jadval

Elektrod rusumi	O'zak diametri $d_e$ , sm	O'zak uzunligi $l_e$ , sm	O'zak massasi $m$ , g	Elektrod massasi $G_e$ , g	Qoplangan qismning uzunligi $l_{e,q}$ , sm	Qoplama massasining koeffisienti $k$

Bir xil diametrli ikki xil markali elektrodlarni yonishi chok xosil qilishi va sachrashga sarf bo'lishini bir biriga nisbatan taqqoslang.

1. Plastinalarni metal chyotka bilan tozalash va raqamlab chiqish.
2. Plastinalarni 1 gramm aniqlikgacha tortish, natijani 3.1-jadvalga yozing.
3. Ikki xil markali elektrodlarni uzunligini o'lchab rusumlab qo'yish va o'lchov natijasini 3.1-jadvalga kiriting.
4. Qoplama massasining koeffitsientini aniqlagan elektrodlardan foydalanib, plastinalarga valiklarni eritib qoplashni bajarish. Yo'yonish davomiyligini sekundomer yordamida kuzatib borish. Eritib qoplash vaqtida ampermestr yordamida payvandlash toki kuchini xaqiqiy qiymatini aniqlash. Payvandlash toki kuchini pasport ma'lumotlariga qarab tanlash va ushbu ma'lumotlarni 3.1-jadvalga kiriting.
5. Plastinalar sovugandan so'ng chyotka va zubilo bilan shlak va sachragan ortiqcha metal tomchilarni tozalab tashlang.
6. Valiklar bilan eritib qoplangan tozalangan plastinalarni 1 gramm aniqlikgacha bo'lgan tarozida tortib 3.1-jadvalga kiriting.
7. Xar bir elektrod markasi uchun tajribani 3 marta takrorlang.
8. 12-formula yordamida aniqlangan 1 sm elektrod o'zagining og'irligini inobatga olgan xolda, eritib yotqizilgan metal og'irligini hisoblang.

$$G_e = m(l_e - l_0) \cdot g \quad (3.13)$$

9. Chok metalini og'irligini hisoblang

$$G_{e,q} = G_{nn} - G_0, \text{ g} \quad (3.14)$$

10. Formula bo'yicha sachrashga, eritib qoplashga, elektrod yonishiga sarf bo'lish koeffitsientini hisoblang. Birinchi ikkitasi (3600 sek/soat) ga o'tqazish bilan quyidagi holatga keltiriladi.

$$\alpha_e = \frac{G_e \cdot 3600}{I_{pay} \cdot t_{pay}} \text{ g/A} \cdot \text{soat} \quad (3.15)$$

$$\alpha_m = \frac{G_m \cdot 3600}{I_{pay} \cdot t_{pay}} \text{ g/A} \cdot \text{soat} \quad (3.16)$$

11. 3.11-formula yordamida xar bir elektrod markasi uchun nazariy ishlab chiqarish unumdorligini hisoblang. Barcha hiob-kitob natijalarini 3.2-jadvalga kiriting.

12. Bitta elektrod markasi uchun payvandlash toki kuchi qiymatini, elektrod diametrini va  $\alpha_r, \alpha_n, \psi$  larni qanday ta'sir etishini tadqiqot qiling.
13. Barcha o'lchov va hisoblashlarning natijalarini 3.1-jadvalga kiriting.
14. O'rganilayotgan elektrod markasi uchun olingan hisob-kitob ma'lumotlariga tayanib payvandlash toki kuchi ta'sirini  $\alpha_e, \alpha_{e,q}, \psi$  va  $G$  larni bog'liqlik grafigini tuzing.

### Hisobot shakli

Hisobot quyidagilardan tashkil topgan bo'lishi kerak: ishning maqsadi, umumiy ma'lumotlar, payvandlash zanjiriga o'lchov asboblarni yoqish sxemasi, barcha jadvallarga ma'lumotlar kiritilgan bo'lishi kerak, grafik tuzilishi, xulosa va olingan natijalarga ta'rif berib o'tilishi kerak.

1. Qoplamlari elektrodlar bilan payvandlashda ish unum dorligi qaysi faktorlarga bog'liq bo'ladi?
2. Elektrod qoplamasini og'irligining koeffitsientini nima xarakterlaydi va u qanday aniqlanadi?
3. Elektrod erishi, yuzaga qoplanishi va sarf bo'lish koeffitsientlarini nima xarakterlaydi?
4. Yoy uzunligi o'zgarishi bilan erigan elektrod sachrashi va ugarga sarf bo'lish foizi qanday o'zgaradi?
5. Yoysi dastakli payvandlashda tok zichligi ortiqcha sarf bo'lishga qanday ta'sir etadi?
6. Qanday holatlarda yuzaga qoplash koeffitsienti elektrondning erish koeffitsientidan ko'p bo'lishi mumkin?

#### 4-Laboratoriya ishi.

##### To'g'rilaqichni ishslash printsipi va konstruktsiyasini o'rganish

**Ish hajmi:** laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtida ishslashga mo'ljallangan.

##### Ishdan maqsad:


1. ВД-302 to'g'rilaqichini elektr sxemasi va konstruktsiyasi bilan tanishish.
2. ВД-302 to'g'rilaqichini ishslash printsipini o'zlashtirish.

**Qisqacha nazariy ma'lumot.** ВД-302 payvandlash to'g'rilaqichi o'zgaruvchan tokning uch fazali tarmog'i energiyasini yoy bilan payvandlashda foydalanish uchun to'g'rilaqan tok energiyasiga o'zgartiruvchi statik o'zgartirgichidir. To'g'rilaqich sxemasi uni qo'llanish sohasiga qarab tanlanadi.


Donali elektrodlar bilan yoy vositasida dastaki payvandlash uchun ВД turidagi payvandlash to'g'rilaqichi qo'llaniladi.

Bunday to'g'rilaqichning asosiy elementlari – uch fazali payvandlash transformatorlari  $T_1$  va to'g'rilaqichlar bloki  $V_1, \dots, V_6$ . Payvandlash transformatorlarining magnit o'tkazgichida birlamchi  $W_1$  va ikkilamchi  $W_2$  chulg'amlar bir biridan bir qancha masofada joylashgan bo'ladi, bu esa pasayuvchi VAT ni hosil qilish uchun zarur bo'lgan  $F_s$  sochilma oqim paydo bo'lishini ta'minlaydi. Bu to'g'rilaqichlar bloki ko'priksida yig'ilgan bo'lib, to'g'rilaqan tokning biroz sezilarli pul'slanishi amplitudasini va payvandlanadigan metallga kiritiladigan issiqlik energiyasining yuqori darajada barqarorligini ta'minlaydi. Salt yurish rejimida payvandlash zanjiri ochiq,  $U_{s,yu} = 65 - 70$  V. Yuklama rejimida, yoy yonganda va chokning shakllanishi davomida lozim bo'lgan tok kuchi transformator magnit o'zagida ikkilamchi chulg'amming o'zak bo'ylab surilishi hisobiga tekis rostlanadi, buning uchun dastaki to'g'rilaqichning jildiga chiqarilgan mexanizm bor.

Qisqa tutashish rejimida qisqa tutashish toki  $I_{q,t} = (1,1 - 1,3) I_e$ , bu yoyning uyg'onishi uchun etarli. ВД to'g'rilaqichlari yaxshi texnik ko'rsatkichlarga ega.




4.1-rasm. ВД-302 payvandlash to'g'rilaqichining funksional sxemasi



4.2-rasm. ВД-302 to'g'rilaqichini uch fazali transformatorining chulg'am o'ramlarini joylanishi

Himoyalovchi gazlarda suyuqlanadigan elektrodlar bilan payvandlash jarayoni, odatda katta payvandlash tokida olib boriladi (300 A dan katta). Bu holda payvandlash yoyining VATi, ayniqsa CO<sub>2</sub> gazda payvandlashda, o'sib boradigan bo'lib qoladi. Demak yoyning turg'un yonishi uchun ta'minlovchi manba qattiq VATga ega bo'lishi lozim. ВДГ to'g'rilaqichi shunday tavsifga ega. Ular yoy bilan dastaki payvandlash uchun to'g'rilaqichdagi kabi asosiy konstruktiv elementlarga ega. Bular uch fazali transformator va to'g'rilaqichlar blokidir. Payvandlash tokini boshqarish uchun to'yinuvchi drossel qo'llangan, metallni sachrashlarini kamaytirish uchun payvandlash zanjiriga qo'shimcha drossel ulangan, bu drossel induktivlikni pog'onali o'zgartirish uchun qayta ulagichga ega. Bu payvandlash rejimini tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi. ВДГ to'g'rilaqichlaridan tashqari himoyalovchi gazda suyuqlanadigan elektrod bilan payvandlash uchun ВДУ universal manbalaridan foydalanish mumkin. Ularning sxemalari pasayib boradigan VATni qattiq tavsifga o'zgartirib ulashni ko'zda tutadi.

ВД-302 payvandlash to'g'rilaqichi to'g'rilevchi bloki uch ustunli parallel ulangan selen ventillardan tashkil topgan. Apparatura bloki karkasida o'lchov, rostlovchi va himoya apparatursasi joylashgan. O'lchov, rostlovchi va himoya apparatursiga ampermetr shunti payvand toki diapazoni almashlab ulagichi, paket o'chrigichi, magnit ishga tushirgichi, shamol parrak nazorat relesi, fil'tr kondensatori va saqlagichlar joylashgan.



4.3-rasm. ВД-302 to'g'rilaqichining elektr sxemasi

4.1-jadval

## O'lchov asboblarining ma'lumotlari

	Asbob nomi	Zavod raqami	Asbob sistemasi	Aniqlik sinfi	O'lchov chegaralari	Bo'lish bahosi	Izoh

4.2-jadval

O'lchovlar raqami	Rostlash bosqichi	Katushka lar orasidagi masofa	Ballast reostati pichoqlari joylashish holati	O'lchangan	
				U <sub>2</sub> , V	I <sub>2</sub> , A
1	I(II)	$v = 0$	x.x.		
2			1-2		
3			1-2-3		
4			1-3-4		
5			2-4-5		
6			2-3-4-5		
7			K. 3		
8		$v = v_{max}$	s.yu.		
9			1-2		
10			1-2-3		
11			1-3-4		
12			2-4-5		
13			2-3-4-5		
14			K. 3		

## DL-302 to'g'rilaqichining texnik ko'rsatkichlari

Nominal payvand toki, A	300
Chastota, Gs	50
Nominal ish rejimi (UDE), %	60
Nominal fazalararo birlamchi kuchlanish, V	220 yoki 380
Birlamchi tok, A:	
- 220 V da bajarilganda	50
- 380 V da bajarilganda	30
Salt yurishdagi nominal kuchlanish, V	61

Nominal ishchi kuchlanish, V	32
Payvand tokini rostlash chegarasi, A:	
- kichik toklar diapazoni	55-135
- katta toklar diapazoni	135-310
Sarflanadigan quvvat, kVa	21
Vazni, N	2200
	Qo'llaniladigan jihozlar va materiallar

### 1. ВД-302 payvandlash to'g'rilaqichi

#### **Laboratoriyanı bajarish tartibi.**

1. To'g'rilaqichni konstruktsiyasi va funksional sxemasi bilan tanishish. Funksional sxemani chizib olish. To'g'rilaqichning bo'lak qismlarini yozib olish. Uch fazali transformatorni o'zagidagi o'rmlar joylashganligi bilan tanishish va qo'zg'aluvchan chulg'amni aniqlash. To'g'rilaqich o'zagidagi chulg'amilar va ular orasidagi v masofani aniqlab, eskizini chizib olish.
2. To'g'rilaqichni texnik ko'rsatkichlarini yozib olish.
3. To'g'rilaqichning printsipial elektr sxemasini bilan tanishish va chizib olish.
4. VD-302 to'g'rilaqichini ishslash printsipini yozib olish.

#### **Hisobot shakli**

Hisobotda ishning maqsadi va umumiyligi ishlarning holati haqida qisqacha ma'lumot berilishi kerak; payvandlash to'g'rilaqichini ishslash printsipi; to'g'rilaqichini texnik ko'rsatkichlari; xulosalar va olingan natijalar bo'yicha tushuntirish ma'lumotlari keltirilgan bo'lishi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. ВД-302 payvand to'g'rilaqichi qanday tuzilishga ega?
2. Payvand to'g'rilaqichi tashqi tavsifi qanday hosil bo'ladi?
3. Payvandlash toki qanday usulda rostlanadi?
4. To'g'rilaqichning qanday asosiy elementlardan iborat va ularning vazifalari?

#### **Laboratoriya ishi №5.**

#### **O'ZGARTIRGICHLARNI ISHLASH PRINTSIPI VA KONSTRUKSIYASINI O'RGANISH**

**Ish hajmi:** laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtida ishslashga mo'ljallangan.

#### **Ishdan maqsad:**

1. ПСО-500 o'zgartirgichini elektr sxemasi va konstruktsiyasi bilan tanishish.
2. ПСО-500 o'zgartirgichini ishslash printsipini o'zlashtirish.

#### **Laboratoriyanı bajarish tartibi.**

- 1.O'zgartirgich konstruksiysi bilan tanishish. Generatorning magnit sistemasi va elektr sxemasi bilan tanishish.
- 2.O'zgartirgichning texnik ko'rsatkichlarini yozib olish.
- 3.Generator magnit sistemasi eskizini chizish va cho'lg'amlarning asosiy va qo'shimcha yo'laklari joylanishini ko'rsatish.
- 4.ГСО-500 generatorining elektr sxemasini chizish, mustaqil qo'zg'aluvchi chulg'amni va ketma ket magnitsizlantirilgan chulg'amni ko'rsatish.
- 5.O'zgartirgichning ishslash printsipini yozib olish.


**Qisqacha nazariy ma'lumot.** ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichi o'zgarmas tokda elektr yoy payvandlashda ishlatiladi.ПСО-500 o'zgartirgichi shlangli avtomat va bir postli yoyli flyus ostida

yarim avtomat payvandlash zanjirini o'zgarmas tok bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan va bir postli dastaki yoyli payvandlashda ishlatalishi mumkin. Bunda payvandlash toki 125 dan 500 A gacha bo'ladi. O'zgartirgich generatori pasayuvchan tashqi tavsifga ega.

O'zgarmas tokning payvandlash generatorlari elektr mashinalarining maxsus xillari bo'lib, ular qattiq, tez pasayadigan va sekin pasayadigan tashqi VAT li qilib chiqariladi. Payvandlash generatorining valini aylantiruvchi yuritma sifatida yoki qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron elektryuritgich yoki ichki yonuv yuritgichdan foydaliniladi. Hozirgi vaqtida aylanuvchi o'zgartirgichlar payvandlash to'g'irlagichlari bilan siqib chiqarilmoqda. Generator bilan elektr yuritgich ulangan konstruktsiya payvandlash o'zgartirgichi deyiladi, generator bilan ichki yonuv yuritgichi ulangan konstruktsiya payvandlash agregatini deyiladi.

Elektr uzatish liniyalari bo'limgan yoki ulardan foydalanish noqulay bo'lgan joylarda payvandlash ishlarini olib borishda payvandlash agregatlari keng ishlataladi. Payvandlash agregatlari maxsus tirkamada avtomobilga ulanadi yoki avtomobil kuzoviga ortiladi.

Sanoatda kollektorli va ventilli generatorlar ishlab chiqariladi. Mustaqil qo'zg'atuvchi kollektorli payvandlash generatorining quyma po'lat korpusi 1 generator magnit tizimini tashkil qiladi, ikki jufti magnit qutblari 2 va 4, ikkita qo'shimcha qutblari va  $W_y$  chulg'amlari bilan langar 3 dan tashkil topgan. Asosiy qutblarda generatorni magnitlovchi  $Wr$  va magnitsizlovchi  $Wr$  chulg'amlari joylashgan.



5.1-rasm. TCO-500 kollektorli payvandlash generatorining  
(ko'ndalang kesmasi) tuzilishi.


Payvandlash toki, kollektordan mis-grafit cho'tkalar a va b dan olinadi, kollektor langar o'qida joylashgan. Generatorning o'qi asinxron yuritgichni o'qiga yoki ichki yonuv yuritgich valiga ulangan. Mustaqil qo'zg'atishli generatorlarda (5.1-rasm),  $W_v$  cho'lg'ami mustaqil to'g'rilaqich ko'prigi V1...V4 dan va qo'shimcha transformator T1 dan mustaqil ravishda elektr tarmog'idan SQ o'chirg'ichi va F1...F3 saqlagichlari orqali ta'minlanadi.

Magnitsizlovchi cho'lg'am  $Wr$  yakor chulg'ami  $W_y$  bilan ketma-ket ulangan, ular payvandlash zanjirini tashkil qiladi.

Qayta ulagich S1 yordamida  $Wr$  cho'lg'aming o'ramlar sonini o'zgartirish mumkin, va bu bilan payvandlash toki kuchini pog'onali rostlash mumkin. Har bir pog'ona chegarasida payvandlash toki kuchi o'zgaruvchan rezistor R1 bilan tekis rostanadi, bunda  $W_v$  cho'lg'amida tok kuchi va magnit oqimi  $F_v$  ning qiymati o'zgaradi.

Salt yurish rejimida payvandlash zanjiri ochiq, asinxron dvigatel M va W<sub>v</sub> cho'lg'amiga kuchlanish U<sub>1</sub> beriladi. W<sub>v</sub> cho'lg'amidan I<sub>v</sub> toki o'tadi va F<sub>v</sub> magnit magnit qutbi 2, (N qutbi) 2-4 qutblari va qutb 4 (S qutbi) orqali berkiladi. F<sub>v</sub> oqimining magnit maydonida langar 3 ning cho'lg'ami W<sub>y</sub>a aylanadi.

Generatorning a va b cho'tkalarida Usi kuchlanish hosil bo'ladi, uning qiymati qo'zg'atish cho'lg'ami toki I<sub>v</sub> ning qiymatiga bog'liq, bu tokni R<sub>1</sub> reostati bilan tekis rostlash mumkin (5.2-rasm).



5.2-rasm. GCO-500 generatorining printsipial elektr sxemasi.

Yuklama rejimida, payvandlash zanjiri berk bo'lganda, yoy oralig'i, magnitsizlovchi chulg'am W<sub>r</sub> va langar chulg'ami orqali tok I<sub>ya</sub> = I<sub>D</sub> o'tadi. Magnitsizlovchi chulg'am W<sub>v</sub> magnit oqim F<sub>v</sub> ga qarshi, yo'nalgan, shular hisobiga pasayib boruvchi VAT shakllanadi.

O'z-o'zidan qo'zg'aluvchi (magnit oqimi hosil qiluvchi) generatorlarda W<sub>v</sub> cho'lg'ami cho'tka b va kollektorni o'rtasida a va b cho'tkalari orasida o'rnatiladigan qo'shimcha cho'tka orqali langar cho'lg'ami W<sub>y</sub>a dan ta'minlanadi. Magnitsizlovchi cho'lg'am W<sub>r</sub> oldingi holga o'xshab, langar cho'lg'ami W<sub>ya</sub> bilan ketma-ket ulanadi. Boshqa tomonlaridan o'z-o'zidan qo'zg'aladigan generatorlar mustaqil qo'zg'atishli generatorlar kabi tuzilgan va ishlaydi.

Ventilli generatorlar chastotasi 200 yoki 400 Hz li uch fazali o'zgaruvchan tok ishlab chiqaradi, keyin bu tokni generatorning konstruksiyasiga kiradigan to'g'rilaqich bloki o'zgarmas tokka aylantiradi. Ventilli generatorning tashqi tavsifi – pasayib boradigan payvandlovchi tokni rostlash – pog'onali (2 ta pog'ona) har bir pog'ona chegarasida tok tekis rostlanadi.

Sanoatda texnik tavsifi turlicha bo'lgan butun oila payvandlash o'zgartirgichlari qo'llanadi (5.1-jadval).

**5.1-jadval**

**Payvandlash o'zgartirgichlari va agregatlarining texnik tavsifi**

Rusumlari		Kuchlanis h, V		Payvandlash toki kuchi, A		UD E %	R <sub>nom</sub> KVA	Illova
O'zgartir- gichlar	Genera- torlar	U 1	U <sub>syu</sub>	I <sub>no</sub> m	Rostlash chegarasi			
ПД-303	ГСО- 300	3 8 0	65	3 0 0	100...30	6 5	10	Mustaqil qo'zg'aladi gan
ПСО- 300-2	ГСО- 300	3 8 0	50- 70	3 1 5	115...31	6 0	16	O'z-o'zidan qo'zg'aladi gan
CAM-300	ГСО- 300-M	3 8 0	50..7 0	3 0 0	80....380	6 5	14	«-«
ПД-501	ГСО- 500	3 8 0 2 2 0	90	5 0 0	125...50	6 0	30	«-«
ПС-500	ГСО- 500-11	3 8 0	60... 90	5 0 0	120...60	6 5	28	«-«

АСДП	СГП-3	3 8 0	60... 90	5 0 0	120...50	6 0	20	«-«
ПСГ-500	ГСГ- 500	3 8 0 2 2 0	40	5 0 0	60...500	6 0	20	«-«

### **ПСО-500 o'zgartirgichining texnik ko'rsatkichlari**

Nominal payvand toki, A	500
Nominal ish rejimi (PN), %	60
Nominal ishchi yuklanishdagi kuchlanish, V	40
Payvand tokini rostlash chegarasi, A	125-500
Generator turi	GSO-500
Generatorda quvvati, kVt	20
Dvigatel turi	A-71-2
Sanoatdagagi kuchlanish, V	220/380
Dvigatel toki, A	92/53
Chastota, Gs	50
Dvigatel quvvati, kVt	28
Aylanish tezligi, ob/min	2930
Vazni, N	5300

Qo'llaniladigan jihozlar va materiallar

#### 1. ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichi

#### **Laboratoriyanı bajarish tartibi.**

1. ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichini konstruktsiyasi va funksional sxemasi bilan tanishish. Funksional sxemani chizib olish. ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichining bo'lak qismlarini yozib olish.
2. ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichini texnik ko'rsatkichlarini yozib olish.
3. ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichining printsipial elektr sxemasini bilan tanishish va chizib olish.
4. ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichini ishlash printsipini yozib olish.

#### **Hisobot shakli**

Hisobotda ishning maqsadi va umumiy ishlarning holati haqida qisqacha ma'lumot berilishi kerak; payvandlash o'zgartirgichini ishlash printsipi; payvandlash o'zgartirgichini texnik ko'rsatkichlari; xulosalar va olingan natijalar bo'yicha tushuntirish ma'lumotlari keltirilgan bo'lishi kerak.

### Nazorat savollari:

1. ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichi qanday tuzilishga ega?
2. Payvandlash o'zgartirgichi va payvand agregati oralig'idagi farq nimada?
3. ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichida payvandlash rejimi qanday rostlanadi.
4. ПСО-500 payvandlash o'zgartirgichlarida o'xhash va farqli jihatlari qanday?

### 6- laboratoriya ishi.

#### ATSETILEN GENERATORLARINI TUZULISHI VA ISHLASHINI O'RGANISH

**Ish hajmi:** laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtida ishslashga mo'ljallangan.

##### Ishdan maqsad:

Asetilen generatorlarining konstruksiyalarini xarakterli tomonlarini ularga hizmat ko'rsatishni va ishslash printsiplarini o'rganish.

**Qisqacha nazariy ma'lumot.** Atsetilen generatori deb gazzimon atsetilen hosil qilish uchun kalsiy karbidini suv bilan parchalashga mo'ljallangan apparatga aytildi.

Generator kalsiy karbididan foydali foydalanish koeffitsientining yuqori bo'lishini ta'minlashi zarur. Foydali foydalanish koeffitsienti deb amalda hosil qilingan atsetilen hajmi Va ning solingan barcha karbiddan olish mumkin bo'lgan hajm Vt ga nisbati aytildi:

$$\eta = \frac{V_{\phi}}{V_n}$$

Hozirgi generatorlarning foydali foydalanish koeffitsienti — 0,85 dan 0,98 gacha bo'ladi.

Reaksiya zonasidagi suv va so'ndirilgan ohak harorati 80°C dan, hosil bo'ladigan gazni esa 115°C dan oshmasligi kerak. Tarmoqqa yoki gorelka shlangiga keladigan atsetilenning harorati atrofdagi muhitnikidan ko'pi bilan 10—15°S ortiq bo'lishi mumkin. Atsetilen bilan to'lg'azilgan gaz sig'imalridagi ortiqcha bosim 15 kPa dan ortiq bo'lmasligi lozim. Ko'chma generatorlardan atrof-muhit harorati -25...+400°C bo'lganda foydalanish zarur.

TOCT 5190-78 ga ko'ra atsetilen generatorlari quyidagi tarzda klassifikatsiyalanadi:

1) Ish unumi buyicha: 0,5; 0,75; 1,25; 2,5; 3; 5; 10; 20; 40; 80; 160 va 320 m<sup>3</sup>/soat atsetilen;  
2) Tuzilishi bo'yicha: ko'chma va statsionar generatorlar. Ko'chma generatorlar ish unumi 3 m<sup>3</sup>/soat gacha tayyorlanadi;

3) Ishlab chiqiladigan atsetilenning bosimi bo'yicha:

- past bosimli — 10 kPa gacha,
- o'rtacha bosimli — 10 dan 70 kPa gacha hamda 70 – 150 kPa gacha.

4) Kaltsiy karbidining suv bilan ta'sirlashish usuli bo'yicha:

- "karbid svuga" (KV);
- "suv karbidga" (VK);
- "svuni siqib chiqarish" (VV);
- kombinasiyalangan - "suv karbidga" va "svuni siqib chiqarish" (VK va VV)

Montaj ishlarini bajarishda payvandlash va kesish uchun ko'chma asetilen generatorlari ishlatiladi. Ko'chma asetilen generatorlarini texnik tavsifi 6.1 – jadvalda ko'rsatilgan.

### 6.1 - jadval


#### Ko'chma asetilen generatorlarini texnik tavsifi

Generator rusumi	Genrator tizimi	Ishlab chiqish unum-dorligi m <sup>3</sup> /soat	Ishchi bosim, MPa	Kalsiy karbidini bir yo'la solishda	Bo'lakl ar o'lchagi xajmi, mm	Genera torni suvsiz va kalsiy karbid-

						isiz massasi, kg
ГНВ-1,25	SK va SSCH	1,25	0,002-0,008	4	25-80	42
AHB-1,25	SK va SSCH	1,25	0,0015-0,0025	4	25-80	42
ACM-1,25	SSCH	1,25	0,01-0,07	2,2	25-80	18
ACM-1-66	SSCH	1,25	0,01-0,07	2	25-80	37
ACB-1,25	SSCH	1,25	0,01-0,07	3	25-80	19
ГВР – 1,25М	SK va SSCH	1,25	0,08-0,015	5	25-80	50
АСП-1,25-6	SSCH	1,25	0,01-0,07	3,5	25-80	21
AMB-1,25	SSCH	1,25	0,01-0,07	3,5	25-80	21
АСП-10	SK va SSCH	1,25	0,15	3,5	25-80	21,3

ASP-1,25-6 turdag'i ko'chma asetilen generator (6.1 - rasm), korpus, membranali 6 qopkoq 4, kalsiy karbidi solinadigan korzina 8, saqlash klapani 9, ventil 12, saqlash tambasi 13 va boshqa elementlardan iborat vertikal silindrik apparatdan iboratdir.

Korpus uch kismidan: yuqorigi — gaz hosil qilgich, o'rta — siqib chiqargich va pastki — yuvgich va gaz yig'gichdan iborat; yuqori qism pastki qism bilan o'zaro kuyish kuvurchasi 10 vositasida tutashtirilgan. Gaz hosil qilgishda kalsiy karbidi parchalanib asetilen ajralib chiqadi.



6.1- rasm. O'rtacha bosimli АСП-1,25-6 ko'chma atsetilen generatorining tashqi ko'rinishi (a) va sxemasi (b)

Gaz hosil qilgichda parchalangan kaltsiy karbidining miqdori ikki usulda rostlanadi:

- kaltsiy karbidli savatni suvga botirib va tegishli balandlikka vertikal yunalishda ko'tarib (kaltsiy karbidli savat apparat bo'g'zi 7 ning qopqog'i 4 da mahkamlangan membrana 6 ga biriktirilgan) rostlanadi;

- siqib chiqargichning ishi hisobiga (siqib chiqargichda havo yostiqchasi va generatorning ishslash jarayonida gaz hosil qilgichning suviga tutashadigan suv bor) rostlanadi.

Yuvgichda atsetilen sovitiladi va ohak zarrachalaridan ajratiladi. Bu kameraning yuqori qismida asetilen to'planadi. Apparatning bu qismi gaz yig'gich deb ataladi.

Gaz hosil qilgichga suv bo'g'iz 7 orqali quyiladi. Quyish kuvurchasi 10 ning sathiga etganda suv gaz hosil qilgichdan yuvgichga tushadi. Yuvgich nazorat qopqoq 15 ning sathigacha to'ldiriladi.

Kaltsiy karbidi savat 8 ga solinadi, poddon 17 mahkamlanadi, membranali 6 qopqoq 4 bo'g'iz 7 vintga o'rnatiladi. Qopqoq bo'g'izga vint 1 hosil qiladigan kuch hisobiga membrana 6 bilan zich yopiladi.

Gaz hosil qilgichda hosil bo'lgan gaz quvurcha 10 orqali yuvgichga tushadi, suv qatlamidan o'tadi, sovitiladi va yuviladi.

Atsetilen yuvgichdan ventil 12 orqali shlangdan o'tib saqlash tambasi 13 ga keladi, bu yerdan ishlatishga uzatiladi.

Gaz hosil qilgichda bosim ortgan sayin membrananing prujinasi 5 ga mahkamlangan kalsiy karbidili savat yuqoriga siljiydi, kalsiy karbidining iviydigan sathi pasayadi, asetilen ishlab chiqarmaydi va bosim ortishi to'xtaydi.

Gaz hosil qilgichda bosim pasayganda membrana va kalsiy karbidili savat prujina 5 ta'sirida suvga tushadi. Shunday qilib, prujinali membrana yordamida apparatdagi asetilen bosimi avtomatik rostlanadi.

Apparatdagi bosim suvni gaz hosil qilgichdan patrubok 11 orqali siqib chiqargichga va, aksincha, siqib chiqargichdan gaz hosil qilgichga siqib chiqarish yo'li bilan rostlash mumkin. Asetilen ajralib chiqqa boshlagan sayin gaz hosil qilgichda bosim orta boradi, suv siqib chiqargichga quyiladi, gaz hosil qilgichdagi suv sathi pasayadi va kalsiy karbidili savat suv sathidan yuqorida bo'lib qoladi, natijada kalsiy karbidining suv bilan parchalanish reaksiyasi to'xtaydi. Gaz hosil qilgichda bosim pasaygan sari siqib chiqargichdan suv yuqoriga ko'tariladi va gaz hosil qilgichda kalsiy karbidi yana iviy boshlaydi.

Saqlash klapani 9 atsetilen bosimi oshganda, ortiqcha bosimni chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi. Klapan korpusga biriktirilgan joyga karbid bo'lakchalari, kuyindi va boshqalarni tutib qolish uchun mo'ljallangan to'r o'rnatilgan.

Ventil 12 asetilenni generatordan chiqarish va iste'molchiga uzatishni rostlash uchun xizmat qiladi. Gaz hosil qilgichda asetilen bosimi manometr 18 yordamida tekshiriladi.

Gaz hosil qilgichdagi loyqa va yuvgichdagi loyqa suv tegishlicha shtuserlar 16 va 14 dan chiqarib yuboriladi.

ЗСГ-1,25-4 turdag'i o'rtacha bosimli saqlash tambasi 13 generatori alanga orqa tomoniga urilganda unga portlash to'lqini kirishidan, hamda, iste'molchi tomonidan havo va kislorod kirishidan saqlaydi.

*Generatori ishga tayyorlash:*

1. Savatdan qopqoq 4 va poddon 17 olinadi.
2. Generator korpusida begona predmetlar yo'qligiga, u yuvilgan va loyqadan tozalanganligiga ishonch hosil qilinadi.
3. Ventil 12 va saqlash klapani 9 ning generatorda mahkamlanishi hamda u korpusga biriktirilgan joyda to'r borligi tekshiriladi.
4. Generatordagi nazorat qopqoq 15 va suv tambasidagi nazorat qopqoq ochiladi.
5. Suv tambaga nazorat qopqoq balandligigacha va bo'g'iz orqali generatorga nazorat klapan 15 satxida suv quyiladi.

Eslatma: past haroratda saqlash tambasiga sovuqqa chidamli eritma quyish kerak.

6. Generator va tambadan ortiqcha suv to'kib tashlangandan keyin nazorat qopqoqlar berkitiladi, tamaning nippelli tarmog'i mahkamlanadi.
7. Shlang yordamida ventil 12 va saqlash tambasi tutashtiriladi.

8. 25 - 80 granullangan kalsiy karbidi ko'pi bilan 3,5 kg (ohakdan tozalangan va quruq savatga) solinadi. Asetilen kam sarflansa, savatga to'dirmasdan kalsiy karbidi solishga ruxsat etiladi.

9. Poddon 17 savat 8 ga mahkamlanadi.

*Generatorning ishlash tartibi:*

1. Kaltsiy karbidi solingen savat 8 bo'g'izga tushiriladi va traversa 2, ilmoq 3 va vint 1 yordamida qopqoq 4 tez zich berkitiladi.

2. Ventil 12 ohista ochiladi.

3. Qistirma yopishib qolmasligi uchun klapan 9 halqasi bosiladi.

4. Shlanglar va payvandlash asbobi (gorelka, keskich) bir daqiqa davomida atsetilen bilan tozalanadi.

5. Generatoragi gaz bosimi manometr 18 ga qarab kuzatib turiladi. Agar biron sababga ko'ra gaz bosimi 0,15 MPa dan oshib ketsa, saqlash klapani 9 esa ishlama, barmoq bilan klapan halqasini bosib, saqlash klapanini majburiy ravishda ochib gaz chiqarib yuboriladi.

6. Solingen kaltsiy karbidi parchalangandan keyin uning yangi porsiyasi solinadi.

7. Generatorga har bir yangi porsiya kaltsiy karbidi solishdan oldin va alanga har gal orqa tomonga urilgandan keyin tambadagi suyuqlik sathi tekshiriladi.

Eslatma. Zaryadlangan generatordagi manometr 18 ga qarab kuzatib turiladi. Agar biron sababga ko'ra gaz bosimi 0,15 MPa dan oshib ketsa, saqlash klapani 9 esa ishlama, barmoq bilan klapan halqasini bosib, saqlash klapanini majburiy ravishda ochib gaz chiqarib yuboriladi.

8. Ish tugagandan keyin savat, gaz xosil kilgich va loyqadan yuvgich yuvib tozalanadi, ochiq shtuserlar 16 va 14 orqali generatordan kondensat to'kiladi.

*Generatorga xizmat ko'rsatish qoidalari*

1. Generatorga xizmat ko'rsatishga 18 yoshga to'lgan, generatorning tuzilishi va ishlashini bilgan shaxslarga ruxsat etiladi.

2. Generator ochiq havoda ishlash uchun mo'ljallangan.

Eslatma. Vaqtinchalik operasiyalar uchun apparatni hajmi kamida  $300 \text{ m}^3$  bo'lган turar joy va ishlab chiqarish xonalarida o'rnatishga ruxsat etiladi.

3. Asetilen bilan birga portlash xavfi bo'lган birikmalar hosil qila oladigan moddalar bo'lган xonada, shuningdek, kompressorlar va ventilyatorlar bilan havo so'rib olinadigan joylar yaqinida generator bilan ishlash man etiladi.

4. Apparat gorelka (keskich) ishlatiladigan joydan, shuningdek, istalgan alanga manbai yoki isitiladigan buyumlardan kamida 10 m masofada o'rnatiladi.

5. Generator har gal qayta zaryadlangandan va alanga har gal orqa tomonga urilgandan keyin tambadagi suv sathini tekshirish zarur.

6. Savatga faqat 25 - 80 granullangan kalsiy karbididan ko'pi bilan 3,5 kg gacha solishga yo'l qo'yiladi.

7. Payvandlash asbobini yoqishdan oldin asetilenning havo bilan portlash xavfi bo'lган aralashmasini chiqarib yuborish uchun generator, saqlash tambasi va shlanglar asetilen bilan tozalanadi. Buning uchun gorelkadagi asetilen ventili bir daqiqa davomida ochib qo'yilishi kerak.

O'tkazuvchanligi  $1,25 \text{ m}^3/\text{soat}$  ortiq bo'lган payvandlash asbobidan foydalanish man etiladi.

9. Generator yaxshi ishlamaganda qopqoqni ochish va kalsiy karbidi parchalanmagan yoqilg'ili savatni chiqarib olish man etiladi. Bunga faqat generator 2—3 soat davomida sovitilgandan va payvandlash asbobi orqali gazni chiqarib yuborib bosim pasaygandan keyin ruxsat etiladi.

10. Savatdagagi loyqa faqat uchkun chiqarmaydigan materialdan (alyuminiy, latun) yasalgan kurakcha bilan tozalanadi, po'lat asbobdan foydalanish man etiladi.

11. Past haroratda ishlaganda generator korpusidagi suv muzlab qolmasligini kuzatib turish kerak, buning uchun ishda uzoq muddatli tanaffus bo'lган paytda suvni to'kib yuborish kerak.

Eslatma. Agar generatordagi suv muzlab qolsa, uni faqat bug' yoki issiq suv bilan isitish kerak, gorelka, kavsharlashda ishlatalidigan lampa alangasi va boshqalardan foydalanish man etiladi.

12. Qopqoqdan traversa orqali foydalanganda kuchni oshirish uchun vint dastasini uzaytirish qat'iy man etiladi.

13. Ishlab turgan generatorni, hatto qisqa muddatli tanaffus paytida ham, nazoratsiz qoldirish taqiqlanadi.

14. Ish tugagaidan keyin generatorni bo'shatish va shunday joyga o'rnatish kerakki, unga begona kishilar yaqinlasha olmasin; generatordan 10 m yaqinlikda olov yoqish yoki unga qizdirilgan predmetlarni yaqinlashtirish mumkin emas.

#### Qo'llaniladigan jihozlar va materiallar

1. AHB-1,25, ГВР-1,25, АСИ-1,25 yoki АСВ-1,25 Atsetilen generatorlari

2. Kaltsiy karbidi – 3-4 kg

3. Suv

#### **Laboratoriyanı bajarish tartibi.**

1. Atsetilen generetorlarining klassifikatsiyasini, konstruksiyasi va tuzulishini o'rghanish, xar bir tur generatorlarini ekspluataсия qilish instruksiyalari bilan tanishib chiqish.

2. Generatorlar va saqlagich tambalarni texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda ishlatalishni o'rghanish.

3. O'quv generatorlarini ishlatalishga yuklash va bo'shatishni bajarish

#### **Hisobot shakli**

1. Ishdan maqsad

2. O'rGANILAYOTGAN bir tur atsetilen generaotrining sxemasi va uning texnik xarakteristikasi.

3. Ishning xulosasi.

#### **Nazorat savollari**

1. Atsetilen generatorlarining qo'llanilishi nimadan iborat?

2. Atsetilen generatorlari qanday jixatlariga ko'ra klassifikasiyalanadi?

3. Saqlagich tambalar nima uchun xizmat qiladi?

4. Kaltsiy karbidiga suv uzatilishi qanday rostlanadi va suv bilan kaltsiy karbidini kontakt vaqtini qancha?

#### **7-laboratoriya ishi.**

#### **GAZ ALANGASIDA PAYVANDLASH GORELKALARINI TUZULISHINI VA ISHLASHINI O'RGANISH**

**Ish hajmi:** laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtida ishslashga mo'ljallangan.

#### **Ishdan maqsad:**

Kislород reduktori, payvandlash kallagi va keskichlari bilan tanishish, hamda kislород reduktorining xarakteristikasini tadqiqot qilish va payvandlash kallagi va keskichlarni yaxshi yonishini aniqlash.


**Qisqacha nazariy ma'lumot.** Gorelkalar – bu qurilma yonuvchi gazni kislород yoki havo bilan aralashdirish uchun va alanagani talab etilgan issiqlik quvvati, shakl va o'lchamlarini olish uchun hizmat qiladi.

Yonilg'i turi bo'yicha gazsimon (atsetilen va boshqalar) va suyuq (kerosin, benzin) yonilg'ilar, shuningdek, vodorod uchun mo'ljallangan gorelkalar bo'ladi. Konstruksiyasi bo'yicha gorelkalarini injektorli va injektorsiz gorelkalarga bo'linadi.

Payvandlash gorelkalarining massasi va o'lchamlari uncha katta bo'lmasligi kerak. Gorelkada yonilg'i va kislорodning talab etilgan nisbatda aralashuvni ta'minlanishi kerak, masalan, atsetilen

gorelkalari uchun kislorod hajmining atsetilen hajmiga nisbati aralashmada 0,8-1,5 chegarasida bo'lishi kerak. Bu nisbat gorelka ishlab turganida doimiy bo'lishi va zarurat bo'lganida payvandlovchi tomonidan rostlab turilishi zarur. Gorelkalar payvandlanadigan detalning qalinligiga qarab, alanga quvvatini o'zgartirishga imkon berishi zarur, bu quvvat 1/soat hisobidagi yonilg'i sarfi bilan ifodalanadi. Yonilg'i aralashmasining gorelkadan chiqish tezligi uning alangalanish tezlididan ortiq bo'lishi va 50...170 m/s chegarasida ta'minlanishi zarur. Bu gorelka bir maromda ishlab turganida teskari zarblar hosil bo'lishi ehtimolining oldi olinadi. Gorelka ishlatishda xavfsiz bo'lishi kerak. Uning hamma birikmalari germetik bo'lishi, teskari zarb alangasi esa jo'mrakni berkitishda so'nishi zarur.


Payvandlashda ko'pincha bitta alangali injektorli gorelkalar ishlatiladi, ular atsetilen va kislorod aralashmasida ishlaydi. Injektorli gorelkada (7.1 - rasm, a) yonuvchi gazni aralashtirish kamerasiga berish uning teshikdan katta tezlikda chiqayotgan kislorod oqimi bilan so'rilishi hisobiga sodir bo'ladi.



7.1-rasm. Injektorli (a) va injektorsiz (b) payvandlash gorelkalarining sxemalari:

1,2 – nippellar; 3 – quvurcha; 4,9 – ventillar; 5 – uchlik; 6 – mundshtuk; 7 – aralashtirish kamerasi; 8 – injektor

So'rishning bu hodisasi injeksiya deb ataladi, bu gorelkalarning nomi ham o'shandan kelib chiqqan. Kislorod nippel 1, naycha 3 va jo'mrak 9 orqali injektor 8 ga kiradi. Injektor kichik diametrli markaziy kanali (kislorod uchun) va radial joylashgan periferiya kanallari (atsetilen uchun) bor silindrik detaldan tuzilgan (7.2 – rasm).




7.2 – rasm. Injektorli qurilma:

1 – aralashtiruvchi kamera; 2 – injektor; 3 – gorelka korpusi

Injektor kanalidan kislorod katta tezlikda aralashtirish kamerasi 7 ga chiqadi va unga atsetilenni so'rib oladi. Atsetilen nippel 2, ventil 4 va kanallar orqali injektor 8 ning tashqi tomonidan beriladi. Yonuvchi aralashma uchlik 5 ning naychasi bo'yicha mundshtuk 6 ga o'tadi, uning chiqishida yonib, alanga hosil qiladi. Injektorli gorelkalar maromida ishlashi uchun kislorodning bosimi 0,15...0,5 MPa, atsetilenning bosimi esa 0,01...0,12 MPa bo'lishi kerak. Injektorli gorelka uchligining qizishi yoki mundshtukning ifloslanib tiqilib qolishi mundshtuk uchligi naychasida bosimning ortishiga olib keladi. Bu esa injeksiyani – atsetilenning aralashtirish kamerasiga kelishini kamaytiradi, aralashmada kislorod ortiqcha ko'payib ketadi. Yonilg'i aralashmasi tarkibining o'zgarib turishi – injektorli gorelkalarining kamchiligidir, payvandlovchiga gorelka uchligini sovitib turishga va mundshtukni tez sim bilan tozalab turishga to'g'ri keladi. Injektorli gorelkalarining afzalliklari – yonuvchi gaz bosimi hatto juda past bo'lganida ham barqaror ishslash imkoniyati borligidadir.


Injektorsiz gorelkalarining universalligi kamroq (7.1 - rasm, b). Ularda yonuvchi gaz va kislorod bir xil 0,05...0,1 MPa bosimda beriladi. Gazlarning bosimini aniq rostlash uchun bu gorelkalarining jo'mraklari ignasimon shpindel bilan jihozlangan. Injektorsiz gorelkalar past bosimli yonilg'iда ishlay olmaydi. Biroq ular ishslash vaqtida yonilg'i tarkibining doimiyligini ta'minlaydi va tuzilishi oddiy.

Atsetilen-kislorod bilan payvandlash uchun mo'ljallangan bitta alangali gorelkalar alanganing quvvatiga qarab ГОCT 1077-79E bo'yicha to'rt turga bo'linadi. Bular mikroquvvatlari (atsetilen sarfi 5...60 dm<sup>3</sup>/soat) Г1 injektorsiz gorelka va uchta injektorli gorelka: Г2 – kam quvvatlari (25...700 dm<sup>3</sup>/soat), Г3 – o'rtacha quvvatlari (50...2500 dm<sup>3</sup>/soat) va Г4 – katta quvvatlari (2500...7000 dm<sup>3</sup>/soat) injektorli gorelkalaridir (7.2 -, 7.3 - va 7.4 – rasmlar). Har qaysi tur gorelkaga raqamlangan almashtiriladigan uchliklar komplekti beriladi. Uchlikning raqami qancha katta bo'lsa, undan chiqadigan gaz sarfi shuncha katta bo'ladi. Masalan, G2 turidagi gorelka beshta uchlik bilan (№ 0, 1, 2, 3 va 4), G3 turidagi gorelka yetita uchlik bilan komplektlanadi. Yondosh raqamli uchliklar orqali gaz sarfi diapazonlari o'zaro qoplanadi. Bu esa uchliklarni almashtirish va gorelka ventillarini har xil ishlatish yo'li bilan alanga quvvatini ravon rostlash imkonini beradi.




7.2 - rasm. Г-1 injektorsiz gorelka

1 – uchlik; 2 – tozalovchi kanal; 3 – korpus; 4 – rostlovchi ventillar; 5 – ignali shpindel; 6 – tana.



7.3-rasm. Injektorli gorelkaning tashqi ko'rinishi va qirqim yuzasi:

a – Г3 turdag'i, b – Г2 turdag'i; 1 – uchlik kuvurchasi; 2 – aralashtiruvchi kamera; 3 va 5 – rezinali siquvchi xalqlalar; 4 – maxovichok; 5 – siquvchi klapan; 7 – plastmassali ushlagich; 8 – asetilenli nipel; 9 – korpus; 10 – injektor; 11 – qoplovchi gayka; 12 – mundshtuk.



7.4 - rasm. Г-4 turidagi injektorli gorelka:

1 – mundshtuk; 2 – aralashtiruvchi kamera; 3 – injektor; 4 – uchlik quvurchasi; 5 – rostlovchi ventillar.

7.1-jadval


Г2 va Г3 turlardagi kichik va o'rtacha quvvati gorelkalarining texnik tavsiflari

Parametri	Uchlik raqami							
	0	1	2	3	4	5	6	7

Kam po'lat mm	uglerodli qalinligi, mm	0,3- 0,6	0,5-1,5	1,0-2,5	2,5-4	4-7	7-11	10-18	17-30
Gaz sarfi, dm <sup>3</sup> /soat: atsetilen kislород		25-60 28-70	50-125 55-135	120-140 130-260	230-430 250-440	400-700 430-750	660-1100 740-1200	1030-1750 1150-1950	1700-2800 1900-3100
Gorelkaga kirishdagi bosimi, MPa atsetilen kislород		>0,001 0,08-0,4	>0,001 0,1-0,4	>0,001 0,15-0,4	>0,001 0,2-0,4	>0,001 0,2-0,4	>0,001 0,2-0,4	>0,001 0,2-0,4	>0,001 0,2-0,4
Teshiklar diametri, mm: injektor mundshtuk		0,18 0,6	0,25 0,85	0,35 0,15	0,45 1,5	0,6 1,9	0,75 2,3	0,95 2,8	1,2 3,5
Aralashmaning mundshtukidan chiqish tezligi, m/s		40-135	50-130	65-135	75-135	80-140	90-150	100-160	110-170

O'z oqishi quyidagicha aniqlanadi (7.4-rasm):

- reduktor shlang bilan balonga ulanadi;
- rostlovchi vint qisuvchi prujinadan to'liq bo'shatilishigacha buraladi;
- ballon ventili asta sekinlik bilan ochiladi;
- shlang uchini suvli idishga botirib o'z oqishi bor yoki yo'qligi aniqlanadi.



7.4-rasm. O'z oqishini aniqlash

Ular tashqi tomondan bo'yalishi bilan farq qiladi, uning rangi ayni gaz uchun mo'ljallangan ballon rangida bo'lishi kerak. Kislород reduktori havorang, atsetilen reduktori oq rang, propan reduktori qizil rang bo'ladi. Boshqa farqi – bu reduktorlarni ballonga mahkamlash uchun biriktiruvchi konstruksiyalaridir. Atsetilen generatorlarida tirak vintli chaspak, qolgan reduktorlarda ballon jo'mragidagi rezbaga mos keluvchi rezbali qoplama gayka.

Reduktsiyalash sxemasi bo'yicha reduktorlar bir pog'onali (bir kamerali) qilib va bosim ikki bosqichda pasayadigan ikki bosqichli (ikki kamerali) qilib tayyorlanadi.

Reduktoring bosimi o'zgarishi reduktoring gaz miqdori o'zgarganligini sezuvchanligini bildiradi va quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$\Pi = \frac{P_2 - p_2}{P_2} \cdot 100\%$$

Bu erda P – bosim o'zgarishi foizlarda, normal reduktorlar uchun 50% dan oshmasligi kerak, r<sub>2</sub>–Ish vaqtidagi past bosimli kameradagi bosim,

r<sub>2</sub>–keskin ravishda kislород miqdori o'zgarishi bilan past bosimli kameradagi bosim.

Yonilg'i turi bo'yicha gazsimon (atsetilen va boshqalar) va suyuq (kerosin, benzin) yonilg'ilari, shuningdek, vodorod uchun mo'ljallangan gorelkalar bo'ladi. Konstruksiysi bo'yicha gorelkalarini injektorli va injektorsiz gorelkalarga bo'linadi.

Payvandlash gorelkalarining massasi va o'lchamlari uncha katta bo'lmasligi kerak. Gorelkada yonilg'i va kislorodning talab etilgan nisbatda aralashuvi ta'minlanishi kerak, masalan, atsetilen gorelkalari uchun kislorod hajmining atsetilen hajmiga nisbatli aralashmada 0,8-1,5 chegarasida bo'lishi kerak. Bu nisbat gorelka ishlab turganida doimiy bo'lishi va zarurat bo'lganida payvandlovchi tomonidan rostlab turilishi zarur. Gorelkalar payvandlanadigan detalning qalinligiga qarab, alanga quvvatini o'zgartirishga imkon berishi zarur, bu quvvat l/soat hisobidagi yonilg'i sarfi bilan ifodalanadi. Yonilg'i aralashmasining gorelkadan chiqish tezligi uning alangalanish tezlididan ortiq bo'lishi va 50...170 m/s chegarasida ta'minlanishi zarur. Bu gorelka bir maromda ishlab turganida teskari zarblar hosil bo'lishi ehtimolining oldi olinadi. Gorelka ishlatishda xavfsiz bo'lishi kerak. Uning hamma birikmalari germetik bo'lishi, teskari zarb alangasi esa jo'mrakni berkitishda so'nishi zarur.

Qo'llaniladigan jihozlar va materiallar

1. Kislород reduktor
2. Gaz gorelkasi (uchliklar komplekti bilan)
3. Gaz-kislородли keskich
4. Ballon kislорodi bilan
5. Atsetilen generatori yoki ballon atsetilen bilan
6. Suv sosudi bilan

#### **Laboratoriyanı bajarish tartibi.**

1. Reduktor, payvandlash gorelkasi va keskichini konstruksiyasini o'rganish, hamda ishlash printspipini o'rganish.
2. Yonuvchi gaz va kislорodni turli xil sarflarda ishlashini tekshirish va hulosa chiqarish.
3. Samotyok bor yoki yo'qligini aniqlash
4. Bosim o'zgarishini tekshirish. Tajriba va xisoblashlar natijalarini 7.2-jadvalga yozing.

7.2-jadval


Yopiq ventil holatda boshlang'ich bosim $r_1$ , MPa	Ochiq ventil holatdagi bosim $r_2$ , MPa	Bosim o'zgarishi chegaralari P, %
0,3		
0,5		
0,7		

5. Rostlash sezgirligini tekshirish. Tajriba natijalarini 7.3-jadvalga tushiring.

7.3-Jadval

Ventil oboroti	0	1/4	1/2	3/4	1	Eslatma
$r_2$						Vintni yopish
$r_2$						Vintni ochish

Tajriba natijalariga ko'ra sezgirlik grafigini tuzing (7.5-rasm)



7.5-rasm. Sezgirlik grafigi

#### **Hisobot shakli**

1. Ishdan maqsad
2. Tajribaviy va xisobiy olingan natijalarni keltirib ishni bajarish metodikasi.

3. Reduktorni sozligi yoki nosozligi bo'yicha xulosalar.
4. Gorelkani ishlashi haqida xulosa.

### Nazorat savollari

1. Reduktor nima uchun xizmat qiladi?
2. Injektro nima uchun xizmat qiladi?
3. Payvandlash gorelkasi va keskichning tuzulishi printsipida qanday farq mavjud?
4. Reduktoring o'tuvchanligi qanday aniqlanadi?
5. Bosim o'zgarish qiymati qanday aniqlanadi?
6. Reduktor sezgirligi nimaga bog'liq?
7. Gorelka va keskichlarning ishlashi nima uchun buziladi?

### 8-laboratoriya ishi.


#### NUQTALI PAYVANDLASH MASHINALARINI TUZILISHINI O'RGANISH

**Ish hajmi:** laboratoriya ishi 4 soat auditoriya vaqtida ishlashga mo'ljallangan.

#### Ishdan maqsad:

1. Nuqtali payvandlash mashinasini ish printsipini va konstruktsiyasini o'rganish.
2. Kontakcli mashinaning ma'lumot matreiallari va yo'rionomalari bilan ishlashni o'rganish.
3. Detallarni tayyorlash, nuqtali payvandlashning asosiy rejim parametrlari payvand birikma sifatiga ta'sirini aniqlash.

**Qisqacha nazariy ma'lumot.** Nuqtali payvandlash mashinasida korpus 1 bo'lib, uning ichida yoki yonida payvandlash transformatori 2 joylashgan. Ikkilamchi uram 14 kolodkalari konsollar 7 va 10, elektrod tutkichlar 8 hamda elektrodlar 9 ga egiluvchan 3, 12 va bikr 4, 11, 13 shinalar vositasida biriktirilgan. Elektrodlardan biri (odatda ustkisi) siqish mexanizmi 16 yordamida polzun 15 bilan birga suriladi va detallarni siqadi. Pastki konsolni yukdan holi qilish va bikrligini oshirish uchun, domkrat b vositasida ko'tarilib tusha oladigan kronshteyn 5 xizmat qiladi.



8.1. – rasm. Nuqtali payvandlash mashinasi.

O'zgarmas tokda ishlaydigan bir fazali nuqtali payvandlash mashinalari MT-604, MT-803, MTP-1110, MTP-1409, MTP-2401, MT-1818, MT-2102, MT-4019 po'latlar va titan qotishmalarini

*payvandlashga eng moslashgan usuldir. Bunday mashinalarda yengil qotishmalarini payvandlashga energiya juda ko'p sarflanadi va detal va elektrodlarning yuzasi tez ifloslanadi.*

*MTB-201, MTBP-4001, MTV-6304, MTV-8002, MTB-16002 o'zgarmas tok mashinalari va past chastotali MTH-7501 mashinalari istalgan payvandlanuvchi metallardan yasalgan buyumlarni payvandlash uchun tavsiya qilingan, chunki ularda tok impulsi qulay shaklda bo'ladi va energiya nisbatan kam sarflanadi.*

*MTK-2001, MTK-5502, MTK-6301, MTK-8004, TKM-17 kondensatorli mashinalarning energiya sig'imi eng kam bo'lib, 0,1-2 mm qalinlikdagi kam uglerodli po'latlarni, 0,1-1,5 mm qalinlikdagi korroziyabardosh po'latlarni, mis, alyuminiy va magniy qotishmalarini payvandlashga mo'ljallangan.*

8.1 - jadval

Bir fazali nuqtali payvandlash mashinalarining texnik tavsifi

Parametrlari	Ustki elektrodi radial suriladi		Ustki elektrodi to'ppa-to'g'ri suriladi			
	MT-604	MT-810	MT-1222	MT-1610	MT-2102	MT-2517
Nominal tok kuchi, kA:						
Payvandlash toki	6,3	8	12,5	26	20	25
Uzoq muddatli ikkilamchi tok	2,8	3,6	7	9	9	14
Nominal quvvat, kV A	14,8	20	60	100	221	170
Ikkilamchi kuchlanish, V	1,63- 2,66	1,42- 2,84	2,08- 4,16	3-6	5	5,41- 8,45
Transformatsiya koeffitsientini rostlash bosqichlari soni	4	8	8	6	8	-
Elektrodlar qulochi, mm	200-275	200-315	500	500	1200	500
Nominal siqish kuchi, N	2000	3000	6180	6180	19600	12300
Elektrodnning umumiy yurishi (ish yurishi + qo'shimcha yurish), mm	20	20	80	80	100	100
Kam uglerodli po'latlarning payvandlanadigan qalinliklari diapazoni, mm	0,2-2	0,25	0,5-5	0,8-2,5	1-4	1-6
Eng yuqori unumdorligi, minutiga nuqta	140	180	375	300	150	150
Rostlagich	RSS-403	RSS-403	RSS-503	RSS-403	BS-205	BS-5VPS
Gabarit o'lchamlari, mm:						
balandligi	1237	1410	1900	1695	2320	2200
eni	452	410	386	450	450	550
uzunligi	833	1083	1340	1420	1450	1685
Og'irligi, kg	230	325	440	800	1680	1200

Qo'llaniladigan jihozlar va materiallar

- 1.Nuqtali kontaktli mashina (MT-1610).
- 2.Sxemalar, chizmalar, yozuvlar va kerak bo'ladigan payvandlash materiallari.
- 3.Qalinligi 0,5+0,5 mm bo'lgan listli sovuq holda tayyorlangan po'lat namunaliri.

**Eslatma:** Nuqtali payvandlash mashinasini ish printsipini va konstruktsiyasini o'rGANADILAR, ikkinchi 2 soatda esa detallarni tayyorlash va, nuqtali payvandlashning asosiy rejim parametrlari payvand birikma sifatiga ta'sirini aniqlaydilar.

#### Laboratoriyanı bajarish tartibi.

Talabalar birinchi 2 soatda quyidagi ishlarni bajaradilar:

1. Nuqtali kontaktli payvandlash mashinasini sxema va yozuv tushuntirish ishlari bo'yicha ishslash printsipini va texnologik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish.

2. Mashina konstruktsiyasining aloxida uzellarini yaxshilab o'rganib chiqish:

- payvandlash transformatori;
- ikkilamchi kontur;
- elektrodlarni siqish mexanizmi;
- mashinaning elektrik sxemasi;
- sovutish tizimi;
- mashinaning tashqi xarakteristikalarini

3. Payvandlash toki yoqilgan xolida mashinaning hamma uzellarini ishlatib ko'rish va ularning bir biriga bog'liqligini ko'rib chiqish.

Keyingi 2 soatda talabalar quyidagilarni bajaradilar:

4. Mashinaning payvandlash rejimlari rostlanishiga axamiyat bering (rostlash chegaralariga).

5. Mashinani tarmoqga ulab ishslashini tekshirib ko'rish kerak.

6. Zagotovkalarni payvandlashga tayyorlab, va ularni payvandlashdan so'ng ajratishga sinashga tayyorlash. Payvandlash parametrlarini tanlash 8.2-jadvalga qarang.

8.2 - jadval

MT-1610 nuqtali payvandlash mashinasining rejimlari

Detal qalinligi	Payvandlash toki, A	Tok uzatilish davomiyligi, s	Siqish kuchi, N	Payvandlanadigan metallar
Oddiy rejimda				
0,5+0,5	4000-4500	0,1-0,2	500-1000	Kam uglerodli po'latlar
1,0+1,0	5000-6000	0,2-0,3	1000-2000	
1,5+1,5	6000-7000	0,24-0,5	1500-3500	
2,0+2,0	7500-8000	0,36-0,6	2500-5000	
Murakkab rejimda				
0,5+0,5	6000-6500	0,08-0,1	1200-1800	Kam uglerodli po'latlar
1,0+1,0	7000-8000	0,12-0,14	2500-3000	
1,5+1,5	9000-10000	0,16-0,22	4000-5000	
2,0+2,0	10000-11500	0,18-0,24	6000-7000	
0,5+0,5	4500-5000	0,08-0,12	2500-3000	Zanglamaydigan po'latlar
1,0+1,0	5000-5700	0,16-0,18	3500-4500	
1,5+1,5	6000-7500	0,20-0,24	5000-6500	
2,0+2,0	7500-8500	0,24-0,30	8000-9000	

7. Tanlangan rejimlarni mashinaga rostlab qo'yish.

8. Quyidagi payvandlash rejimlarini o'zgartigan holda namunalarni payvandlash:

- tok qiymatini;
  - tok davomiylik vaqtini;
  - bosim kuchini;
  - payvandlanayotgan namunalar qalinligini;
  - Elektrodning ishchi yuzasi o'lchamlarini
- Ushbu ma'lumotlarni 8.3-jadvalga kriting.

8.3 - jadval

Nuqtali payvandlash rejim parametrlari jadvali

No/№	Ikkilamchi kuchlanish I <sub>L<sub>2</sub></sub> , V	Birlamchi tok I <sub>1</sub> , V	Transformatsiya koeffitsienti k	Mashinaning quvvati P, kVt	Payvandlash toki I <sub>2</sub> , A	Siqish kuchi R <sub>sv</sub> , N	Payvandlash vaqtি tc <sub>V</sub> , s	Elektrod diametri d <sub>e</sub> , mm	Metall qalinligi s, mm	Birikmaning tashqi ko'rnishi

9. Namunalarni ajratishga sinash va olngan natijalarni 8.4-jadvalga kriting.

8.4-jadval

Namuna №/№	Bosim kuchi R <sub>raz</sub> , N	Payvand birikmaning maydoni F, m <sup>2</sup>	Aj rash kuchlanishi τ <sub>sr</sub> , N/m <sup>2</sup>	Aj rash joyi

**Hisobot shakli**

1. Ishdan maqsad
2. Mashinaning texnik ko'rsatkichlari va qo'llanilishi.
3. Mashinaning elektrik sxemasi
4. Payvandlash rejimi natijalari va namunalarning mexanik sinovlari, ish bo'yicha xulosalar.

**Nazorat savollari**

1. Kontaktli payvandlash uchun nuqtali mashinaning asosiy qismlarini gapirib bering.
2. Nuqtali kontaktli mashinaning ish printsipini gapirib bering.
4. KIA turidagi asinxron kontaktorning tuzilishi va ishlashi qanday?
5. Nuqtali kontaktli payvandlashning asosiy rejim parametrlariga nimalar kiradi?
6. Payvand birikma sifatiga payvandlash toki uning davomiyligi va qisish kuchi qanday ta'sir etadi.

**9-LABARATORIYA ISHI****Rolikli payvandlash mashinalarini tuzilishini o'rganish****Ishdan ko'zlangan maqsad:**


- Rolikli payvandlash mashinalarini ishlash prinsipi va konstruksiyasini bilan tanishish.
- Rolikli payvandlash mashinalarini turlarini ajrata olish.
- Rolikli payvandlash mashinalarini ishga tayorlashni o'rganish.

**Kerakli jixozlar:**

**Rolikli payvandlash mashinalari**, mashina ishchi va elektr sxemasi, payvandchi maxsus kiyimlari.

**Umumiy ma'lumotlar.****Chokli kontaktli payvandlash**

Chokli payvandlash bir-birni berkitib turuvchi nuqtalar qatorini hosil qilish yo'li bilan zinch birikma (chok) olish usulidir. Bunda aylanuvchi disksimon elektrodlar - roliklar yordamida tok keltiriladi va detallar siljiltiladi. Nuqtali payvandlashda bo'lgani kabi detallar ustma-ust yig'iladi va payvandlash tokining qisqa muddatli impulsular bilan qizdiriladi. Nuqtalarning bir-birini berkitib turishiga tok impulsulari o'rtaqidagi to'xtam (pauza)ni va roliklarning aylanish tezligini tegishlicha tanlash orqali erishiladi.



**2.2-rasm.** Kontaktli choqli payvandlash sxemasi:

1 – payvandalanayotgan detail; 2 – roliklar; 3 – transformator; 4 – o'zak.

Chokli payvandlashning uzlukli, uzlusiz va qadam-baqadam turlari bo‘ladi.

Roliklar yordamida uzlusiz payvandlashda payvandlanayotgan detallar o‘zgarmas tezlikda uzlusiz harakatlanadi. Bunda payvandlash toki uzlusiz ulangan bo‘ladi.


Roliklar yordamida uzlukli payvandlashda qisqa muddatli tok impulslari ( $t_i$ ) to‘xtamlar ( $t_r$ ) navbatlashib keladi va detallar uzlusiz harakatlanadi.

Roliklar yordamida qadam-baqadam payvandlashda payvandlash toki ulangan paytda roliklar vaqtincha to‘xtaydi - detallar harakatlanmaydi, bu esa roliklarniig yeyilishini, qoldiq, zo‘riqishlarni va darzlar hamda kavakarlar paydo bo‘lishiga moyillikni kamaytirish imkonini yaratadi.

Chokli payvandlashda detallar ko‘pincha ustma-ust yig‘iladi va payvandlanadi. Ammo ayrim hollarda chokli uchma-uch payvandlashdan ham foydalaniladi, bu hol birikmalarning siklik mustahkamligi yuqorirok bo‘lishini ta’minlaydi. Bunda payvalanayotgan detallar to‘laroq, erishi uchun folgadan yasalgan ustqo‘ymalardan foydalaniladi.

### 15.5. Chokli payvandlash mashinalari

Mashina korpusi (1) ichida payvandlash transformatori (3) va elektr yuritma (2) li roliklarni aylantirish mexanizmi joylashgan (15.3-rasm).



**15.3-rasm.** Chokli payvandlash mashinasi.

Aylanuvchi roliklar (7) korinishidagi elektrodlar tok keltiruvchi tizimlar bilak birligida yuqorigi (8) va pastki (6) rolik kallaklarini hosil qiladi.

## Chokli payvandlash mashinalarining texnik tavsifi

Paramtrlari	Bir fazali mashinalar				O'zgarmas tok mashinalari		
	MIII-100	MIII-1601	MIII-2001	MIII-3201	MIII-1601	MIII-6301	MIII-8001
Nominal tok kuchi, kA: payvandlash toki uzoq muddatli ikkilamchi tok	10 7	16 11,25	20 14	32 22	16 11,2	63 36	80 45
Nominal quvvat, kVA	31	75	127	323	133	533	730
Ikkilamchi kuchlanishini rostlash chegaralari, V	1,7–3,5	2,14–4,28	4–6	5,6–8,2	—	—	—
Transformatsiya koefitsientini rostlash bosqichlari soni	8	8	6	6	8	24	8
Elektrodlar qulochi, mm	400	400	800	800	2500	1200	1500
Eng katta siqish kuchi, N	2450	4900	7850	11750	19600	19600	32000
Elektrodning umumiy yurishi (ish yurishi + qo'shimcha yurish), mm	2	—	—	—	10–25	10–25	25–150
Roliklar uzlusiz aylanganda payvandlash tezligi, m/min	1–5	0,8–4,5	0,4–4,5	0,35–4,5	0,2–8	0,2–8	—
Roliklar qadamli aylanishda ish sur'atini rostlash chegaralari, minutiga payvandlash	—	—	—	—	10–250	10–250	25–150
Payvandlanadigan materiallar qalinliklari diapazoni, mm: Kam uglerodli po'latlar	0,5–1,2 —	0,5–1,5 —	0,5–0,8 —	0,8–3 —	— 0,3–3	— 0,3–3	— 1,5–6
Korroziyabardosh va issiqqa chidamlı po'latlar hamda titan qotishmalar	—	—	—	—	0,5–3	0,5–3	0,5–3
Aluminiy va magniy qotishmalari	—	—	—	—	0,5–3	0,5–3	0,5–3
Gabarit o'lchamlari, mm: Balandligi Eni Uzunligi	1405 510 1270	1455 510 1770	2295 720 2395	2395 720 2255	3320 960 3680	3510 1165 2955	3700 1160 3060
Og'irligi, kg	526	620	1350	1700	3700	4450	7000

Yuqorigi rolik pnevmoyuritma (10) li siqish mexanizmidan polzun (9) bilan birga harkatlanadi. Payvandlash konturining tok keltiruvchi va elektr kuch qismlari (konsollar, kronshteyn (5) va b.) nuqtali payvandlash mashinasidagidan boshqacha ishlangan. Tashqaridan sovitish bilan payvandlashda suvni to'kish uchun tog'ora (4) dan foydalilanadi. Zamonaviy chokli payvandlash mashinalarida gardishlarning ko'ndalang va bo'ylama choklarini payvandlash uchun yuqorigi va pastki roliklarni osongina sozlash nazarda tutilgan.

Ammo faqat ko'ndalang yoki bo'ylama choklar payvandlashga mo'ljallangan mashinalar ham ishlab chiqariladi. MIII-3201 bir fazali o'zgaruvchan to'k mashinalar va to'k ikilamchi konturida to'g'rilanadigan MIIIB-1202, MIIIB-1601, MIIIB-4002, MIIIB-8001, MIIIB-12001 mashinalari eng ko'p qo'llaniladi.

### Ishni bajarish tartibi.

1. Rolikli payvandlash mashinalarini chizmada ko'rsatilgan sxemasi bilan taqqoslab, qisimlarini o'rganish.
3. Rolikli payvandlash mashinalarini ishga tayorlashni o'rganish.

### Hisobot uchun savollar:

1. Rolikli payvandlash moxiyat nimadan iborat?

- 2.Rolikli payvandlash jarayonlarini qaysi parametrlariga kura tasniflash mumkin?
- 3.Rolikli payvandlash qaysi sohalarda qo'llaniladi?

### **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o`quv qo'llanmalar ro`yxati**

#### **Asosiy darsliklar va o`quv qo'llanmalar**

1. Ermakov Z.D., Dunyashin N.S. Payvandlash asosiy uslublari. O'quv qullanma – T.: , 2014
2. Abralov M.A, Дуняшин Н.С., Эрматов З.Д., Абрашев М.М. Технология и оборудование сварки плавлением. Учебник – Т.: Komron press, 2014

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Ermakov Z.D. «Payvandlash asosiy uslublari» fanidan ma'ruza matni – T.: TDTU, 2013 – 151b
2. Abralov M.A., Dunyashin N.S., Abralov M.M., Ermakov Z.D. Eritib payvandlash texnologiyasi va jihozlari – T.: Voris, 2007. - 416b
3. Абрашев М.А., Дуняшин Н.С. Конспект лекций по дисциплине «Основные способы сварки, наплавки и пайки» - Т.: ТашГТУ, 2002. - 110 с.
4. Технология и оборудование контактной сварки/Б.Д. Орлов, А.А. Чакалев, Ю.В. Дмитриев и др. Под общ. ред. Б.Д. Орлова – М.: Машиностроение. 1986 – 352с

#### *Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati*

1. Abralov M.A., Dunyashin N.S., Abralov M.M., Ermakov Z.D. Eritib payvandlash texnologiyasi va jihozlari – T.: Voris, 2007
2. Abralov M.A., Dunyashin N.S., Ermakov Z.D. Gaz alangasi yordamida metellarga ishlov berish texnologiyasi va jihozlari – T.: Ilm ziyo, 2007
3. Abralov M.A., Dunyashin N.S. Kontaktli payvandlash texnologiyasi va jihozlari – T.: Turoniqbol, 2006
4. Abralov M.A., Ermakov Z.D., Dunyashin N.S. Qo'lda yoyli payvandlash jihozlari – T.: O'zbekiston faylsuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012
5. Абрашев М., Дуняшин Н. Оборудование и технология газопламенной обработки металлов – Т.: Iqtisod-moliya, 2010
6. Евсеев. Г.Б., Глизманенко Г.Д.. Оборудование и технология газопламенной обработки металлов и неметаллических материалов. - М.: Машиностроение, 1974.
7. Маслов В.И. Сварочные работы. - М.: Издательский центр «Академия», 1999
8. Николаев А.А. Электрогазосварщик. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2000
9. Сварки и свариваемые материалы: В 3-х т. Т. 2. Технология и оборудование: Справочное издание/ Под. ред. В.М. Ямпольского. - М.: Изд-во МГТУ им Н.Э. Баумана, 1998.
10. Сварка и резка материалов: Учеб. пособие/ М.Д. Банов, Ю.В. Казаков, М.Г. Козулин и др.; Под ред. Ю.В. Казакова. - М.: Издательский центр «Академия», 2001
11. Чебан В.А. Сварочные работы. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004
12. [www.svarka.ru](http://www.svarka.ru)



